

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“Sud-huquq tizimini isloh qilish” mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi:

4-kurs talabasi Axatov O

Navoiy 2014

MAVZU: Sud-huquq tizimini isloh qilish

(O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining qo`shma majlisidagi “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” misolida)

REJA:

Kirish

1. Qonun ijodkorligi jarayonining samaradorligini yanada oshirish – davr talabi
2. Sud hokimiyatining nufuzini oshirish masalalari
3. Tezkor-qidiruv faoliyatining huquqiy asosini yaratish
4. Sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishning ahamiyati va zarurati

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

Kirish

Mamlakatimizda sud-huquq tizimini isloh qilish, jinoiy jazoni liberallashtirish borasida muayyan ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Zero, ushbu islohotlar mohiyatida insonlarning huquq va manfaatini himoyalash hamda sudlar mustaqilligini ta'minlash orqali ularning kuchli fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlatni shakllantirishdagi rolini oshirish maqsadi mujassamdir.

Buni istiqbol yillarida qo'lga kiritilgan natijalar misolida ham ko'rish mumkin. Ma'lumki, 1991-2000 yillarda xalqimizning tarixan shakllangan milliy va madaniy xususiyatlaridan kelib chiqib, siyosiy demokratiya va erkin iqtisodiyotga erishish strategiyasi ishlab chiqildi. Natijada davlatchiligimiz tarixida birinchi marta Konstitutsiyaviy sud tashkil etildi hamda sud hokimiyatining tarkibiy qismi sifatida xo'jalik sudlari tuzildi. Ayni chog'da sudlarni davlat hokimiyatining mustaqil tarkibiy qismi sifatida shakllantirishga qaratilgan qonun hujjatlari ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etildi.

2001 — 2005 yillarda esa islohotlar ko'лами yanada kengaydi. Aniqrog'i, jinoyat qonunini liberallashtirish, sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlash, sud qarorlari ijrosini takomillashtirish borasida muhim qadamlar qo'yildi. Xususan, 2001 yil 29 avgustda "Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi sud-huquq sohasida yangi sahifa ochdi. qolaversa, sud jarayoniga xalqimiz mentaliteti, bag'rikengligiga mos keladigan yarashuv instituti tatbiq etildi.

Sud-huquq islohotlarining keyingi bosqichida amalga oshirilgan eng ulkan tarixiy voqea — bu, shubhasiz, o'lim jazosining bekor qilinishi bo'ldi. Prezidentimizning 2005 yil 1 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida"gi Farmoniga binoan, 2008 yil 1 yanvardan

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksidan o'lim jazosi chiqarilib, o'rniga umrbod ozodlikdan mahrum etish jazosi kiritildi. Ammo bu jazo ayollarga, o'n sakkiz yoshga to'lmagan jinoyat sodir etgan shaxslar va oltmish yoshdan oshgan erkaklarga nisbatan qo'llanilmaydi. Shuning o'ziyoq bu jazo turini qo'llashda insonparvarlik tamoyili asosiy mezon qilib olinganligini ko'rsatib turibdi.

Soha islohotlari shu bilan kifoyalanib qolmadi. Aksincha, keyingi yillarda islohotlar chuqurlashtirilib, uning samarasini oshirishga qaratilgan yangi qonun va normativ hujjatlar hayotga tatbiq etilmoqda. Buning natijasida salmoqli yutuqlar qo'lga kiritilayotir. Masalan, jinoyat, jinoyat-protsessual qonunchiligi liberallashtirildi, inson huquq va erkinligini ta'minlovchi mustaqil sud hokimiyati shakllandi. Boshqacha aytganda, jinoiy jazo va sud ishlarini yuritish liberalashtirilib, shaxsni jamiyatdan ajratib qo'yish bilan bog'liq bo'lmagan jazo turlarini tayinlash imkoniyati kengaydi. Ozodlikdan mahrum qilish tariqasida jazo qo'llanilgan shaxslar soni kamaygani ham shundan dalolat berib turadi. Ayni chog'da umumiy yurisdiksiya sudlari ixtisoslashuvi yo'lga qo'yilib, odil sudlov sifati oshishiga erishildi.

Ushbu sa'y-harakatlar aholining huquqiy savodxonligini yuksaltirishga xizmat qilmokda. Fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilishga qaratilgan murojaatlari oshib borayotgani buning tasdig'idir. Masalan, 2000 yilda respublika bo'yicha 95 mingga yaqin fuqarolik ishlari ko'rilgan bo'lsa, 2010 yilning birinchi yarmiga kelib, bu ko'rsatkich 127 mingdan ko'proqni tashkil qilgan. Bu esa, o'z navbatida, fuqarolarning odil sudlovga ishonchi ortib borayotganidan dalolat berib turibdi.

Apellyatsiya tartibi joriy etilishi esa sud jarayoni ishtirokchilari huquq va manfaatlarini himoya qilishda qo'shimcha kafolat bo'lib xizmat qilmoqda. Yarashuv instituti joriy etilib, uni qo'llash doirasi yanada kengaytirilishi hisobiga keyingi to'qqiz yil ichida 103 mingga yaqin kishiga nisbatan jinoiy ta'qib tugatilganligi bunga misol bo'la oladi. qolaversa, jinoyat oqibatida etkazilgan 104

milliard soʻmdan ortiq moddiy zarar oʻrnini qoplagan 17 mingga yaqin shaxsga ozodlikdan mahrum qilish bilan bogʻliq boʻlmagan jazo tayinlangani ham sud-huquq tizimida erishgan yutuqlarimizning amaliy ifodasi boʻldi.

Shuningdek, amnistiya aktini tatbiq etish sudlar tomonidan amalga oshirilishining belgilanishi, advokatura instituti isloh etilishi, guvoh huquqining advokat yordamida himoyalaniishi, amaldagi qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga tegishli oʻzgartish va koʻshimchalar kiritilishi inson huquqdarini himoya qilish yoʻlidagi navbatdagi muhim qadamlar boʻldi.

Oliy sudda boʻlib oʻtgan yiqilishda istiqlol yillarida, xususan, 2010 yilning olti oyida sohada erishilgan yutuklarimiz, shu jumladan, umumiy yurisdiksiya sudlari tomonidan odil sudlovni amalga oshirish borasida 2011 yilda amalga oshirilgan ishlar taxlil qilindi. Kamchiliklar muhokama etilib, ularni bartaraf etish choralari belgilab olindi.

Ayonki, umumiyurisdiksiya sudlari "Sudlar toʻgʻrisida"gi qonun va Konstitutsiya talabidan kelib chiqib, fuqarolarning xuquq va erkinligi, korxona, muassasa va tashkilotlar huquqlari, ularning qonun bilan koʻrikdanadigan manfaatlarini sud yoʻli bilan himoyalashdek mas'uliyatli vazifani bajarib kelmokda. Bu borada ularga Oliy sud tomonidan qabul qilingan sud amaliyotini toʻgʻri yoʻnaltirishga qaratilgan plenum qarorlari dasturilamal boʻlib xizmat qilmokda.

Shu oʻrinda Oliy sud sudyalari, konsultantlari hamda Oliy sud huzuridagi Tadqiqot markazi xodimlarining qonun ijodkorligi faoliyati haqida ham alohida toʻxtalib oʻtish zarur. oʻtgan davrda ular Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va qonunchilik palatasi, shuningdek, boshqa vakolatli idoralar tomonidan tashkil etilgan ishchi guruhlarda faol ishtirok etib, 48 ta qonun loyihasi va boshqa normativ hujjatlarni ishlab chiqishda qatnashdi. hozirda ushbu qonunlarning ayrimlari sud-huquq amaliyotiga tadbiq etilmoqda.

Mamlaktimiz sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar inson huquq va manfaatlarini himoya qilish, yurtimizda erkin fuqarolik jamiyati va huquqiy demokratik davlat barpo etish maqsadiga qaratilgan. Zero, qonunlari ustuvor, fuqarolarining huquq va manfaatlari har tomonlama kafotatlagan jamiyatda kishilar baxtli hayot kechiradilar.

1. QONUN IJODKORLIGI JARAYONINING SAMARADORLIGINI YANADA OSHIRISH – DAVR TALABI

Mamlakatimiz istiqbolga erishgach, xalqimiz o`z oldiga ezgu va ulug` maqsadlar qo`yib, tinch-osoyishta hayot kechirish, o`z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo`lini tanladi.

Tarixan qisqa davr ichida mamlakatimiz hayotida ulkan o`zgarishlar ro`y berdi, mamlakatimiz qiyofasi tubdan o`zgardi, xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va farovon hayotni barpo etdik, bu yo`lda erisha-yotgan yutuqlarimiz xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olindi, ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo`lida izchil islohotlar amalga oshirilib, o`z samarasini berayotir. Ayniqsa, davlatimiz rahbari I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan hamda butun dunyoda o`zbek modeli sifatida tan olingan taraqqiyot modeli bugun hayotda o`zini to`liq oqladi. Ushbu modelning ma'no-mazmuni – davlat qurilishi va konstitutsiyaviy tuzumni tubdan o`zgartirish va yangilash, iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish, uning siyosatdan ustunligini taminlash, davlatning bosh islohotchi vazifasini bajarishi, yani islohotlar tashabbuskori bo`lishi va ularni muvofiqlashtirib borishi, qonun ustuvor-ligini taminlash, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, islohotlarni bosqichma-bosqich va izchil olib borish tamoyillariga asoslanadigan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Prezidentimizning O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrda bo`lib o`tgan qo`shma majlisidagi “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” ham “o`zbek modeli” sifatida tan olingan mazkur taraqqiyot modelida nazarda tutilgan tamoyil, xususan, islohotlarni

bosqichma-bosqich va izchil olib borish tamoyiliga asoslanadigan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish-ning mantiqiy davomi deb baholanishi mumkin.

“o`zbek modeli” deb nom olgan mazkur taraqqiyot tamoyillari mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq tizimini islohot etish jarayonlarida ham alohida o`rin tutadi. Modelning asosiy tamoyillaridan biri bo`lmish qonun ustuvorligi va qonuniylikni ta'minlashga ko`maklashish hamda uni mustahkamlashda sud hokimiyatining ahamiyati beqiyos. Shu maqsadda sud hokimiyatini bosqichma-bosqich mustahkamlab borish, sudning mustaqilligini taminlash, uni inson va fuqaro huquq va erkinliklarini ishonchli himoya va muhofaza etishga xizmat qiladigan tom manodagi mustaqil davlat institutiga aylantirishga qaratilgan keng ko`lamli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Biroq davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, bugungi kunda siyosiy, iqtisodiy, davlat-huquqiy munosabatlarning butun tizimini modernizatsiya qilish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, inson huquq va erkinliklarini himoya etish bo`yicha keng ko`lamli vazifalar sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish masalasini kun tartibiga qo`ymoqda. “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiya”sida ham mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichdagi eng muhim yo`nalishlaridan biri shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirish ekanligi alohida ta'kidlangan va bu boradagi vazifalarni samarali hal qilish maqsadida qator tashkiliy-huquqiy choralarni amalga oshirish taklif etilgan.

Kontseptsiyada ilgari surilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirish borasidagi vazifalarni samarali hal qilishga qaratilgan dastlabki tashkiliy-huquqiy chora sifatida “Normativ-huquqiy hujjatlar to`g`risida”gi qonunning yangi tahririni qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston istiqbolga erishgach, barcha sohalarda bo'lgani kabi qonun ijodkorligi sohasida ham tub islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, mamlakatimizda 2005 yildan e'tiboran ikki palatali parlamentning barpo etilishi bu borada erishilgan muhim yutuqlardan biri bo'ldi. Ikki palatali parlamentni barpo etishdan ko'zlangan maqsadlardan biri ham aynan Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis qonunchilik palatasi o'z faoliyatini doimiy professional tarzda olib borishini nazarda tutgan holda parlamentning qonun ijodkorligi borasidagi ishining sifatini keskin oshirishdan iborat hisoblanadi.

Darhaqiqat, qonun ijodkorligi jarayonining samaradorligini oshirish mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, shu orqali davlat va jamiyat hayotida muhim o'rin tutadigan qonunlarni yaratish, ularning huquqni qo'llash amaliyotida samarali amalga oshirilishini ta'minlashga erishish mumkin bo'ladi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, mamlakatimizda qonun ijodkorligini rivojlantirishga qaratilgan huquqiy asoslar yaratilib, hozirgi kunda yanada takomillashtirilmoqda. 2000 yil 14 dekabrda O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonuni, 2006 yil 11 oktyabrda "qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari shular jumlasidandir. Normativ-huquqiy hujjatlar tushunchasi, turlari va ularga qo'yiladigan asosiy talablarni belgilaydigan "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonun shubhasiz, mamlakatimizda qonun ijodkorligi jarayonining rivojlanishiga, normativ-huquqiy hujjat-larning sifatini oshirishga hamda ularni amalda bir xilda qo'llanilishini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Shu kunga qadar mazkur qonunga bir qator o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan. Masalan, 2003 yil 12 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi-ning "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonuniga

qo'shimcha kiriti-lib, mahalliy davlat hokimiyati organlarining normativ xususiyatga ega bo'lgan qarorlari loyihalarining yuridik ekspertizasi viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan amalga oshirilishi nazarda tutildi, normativ-huquqiy hujjatlarni e'lon qilishning rasmiy manbalari aniqlashtirildi. 2004 yil 3 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonuniga o'zgartishlar kiritilib, normativ-huquqiy hujjatning loyihasini normativ-huquqiy hujjatni qabul qiluvchi organga kiritish tartibi takomillashtirildi. Normativ-huquqiy hujjatning rasmiy matnini imzo qo'yib tasdiqlash tartibiga o'zgartish kiritilib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasining qarorlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi Spikeri tomonidan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarorlari esa O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi tomonidan tasdiqlanishi belgilandi. Shuningdek, mazkur qonunda normativ-huquqiy hujjatlarni e'lon qilishning rasmiy manbalari ro'yxatiga aniqlik kiritishga qaratilgan o'zgartishlar o'z ifodasini topdi.

Biroq mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonlari bosqichma-bosqich, izchillik bilan amalga oshirilayotgan bir paytda qonun ijodkorligi jarayonining samaradorligini yanada yuqori darajaga ko'tarishni taqozo etmoqda. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"da ta'kidlaganidek, bundan o'n yil oldin qabul qilingan amaldagi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonunning yangi tahririni qabul qilishni bugun hayotning o'zi talab qilmoqda. Davlatimiz rahbari "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonunning yangi tahririni qabul qilish zaruratining quyidagi omillari mavjud

ekanligini ko'rsatadi. Bular, birinchidan, o'tgan davrda qonun ijodkorligi jarayoni kengayganligi va birmuncha murakkablashganligi. Ikkinchidan, normativ-huquqiy hujjatlarning asoslanganligi va sifatiga nisbatan talablar sezilarli darajada oshganligi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining 2010 yil 27 yanvarda bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish - ustuvor maqsadimizdir" nomli ma'ruzasida avvalgi parlamentimiz faoliyatidagi kamchilik va nuqsonlar, foydalanilmasdan qolgan imkoniyatlar haqida gapirib, qonunchilik palatasi faoliyatidagi eng katta kamchiliklardan biri uning qonun ijodkorligi ishlari bo'yicha chuqur va har tomonlama puxta ishlab chiqilgan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sotsial-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy islohotlar jarayonining talablari bilan uzviy bog'liq bo'lgan, uzoq istiqbolga mo'ljallangan o'z dasturiga ega emasligida ko'rinishini ta'kidlagan. Shunday ekan, "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonunning yangi tahririda normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qiluvchi organlar tomonidan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish yoki qonun hujjatlari normalarini takomillashtirish maqsadida normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalarini tayyorlashning joriy va istiqbolli rejalarini ishlab chiqishi va tasdiqlashi mumkinligi, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashni rejalashtirish tartibi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qiluvchi organlar tomonidan belgilanishi to'g'risidagi qoidalar o'z ifodasini topmog'i lozim.

Shu o'rinda o'rganilgan aksariyat MDHga a'zo davlatlarning "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonunida normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalarini rejalashtirishni nazarda tutuvchi normalar mavjud. Xususan, "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Belarus Respublikasi qonuni-ning "qonun ijodkorligi faoliyatini rejalashtirish" deb nomlangan 10-bobida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashni rejalashtirish, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash rejalarini ishlab chiqish tartibi, normativ-huquqiy

hujjatlar loyihalarini tayyorlash rejalari va davlat dasturlarining amalga oshirilishi yuzasidan nazorat qilish masalalari o'z ifodasini topgan. Shuningdek, "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Ozarboyjon Respublikasining qonunida ham "Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashni rejalashtirish" deb nomlangan alohida bob mavjud bo'lib, unda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tasdiqlash uchun tayyorlash rejalari, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash bo'yicha takliflarni inobatga olish, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashning kelajakdagi rejalariga oid qoidalar bayon etilgan.

"Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonunning yangi tahririda normativ-huquqiy hujjatni tayyorlashda normativ-huquqiy hujjatning qo'llanish amaliyotini, jamoatchilik fikrini hamda xalqaro tajribani o'rganish masalalariga alohida e'tibor berilishi talab etiladi. Shu o'rinda "qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida"gi qonunning 15-moddasida qonunlar loyihalarini tayyorlashda xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan printsiplari va normalari hisobga olinishi, shuningdek qonun bilan tartibga solish borasida boshqa davlatlar tajribasi o'rganilishi, 16-moddada esa qonunchilik tashabbusi huquqi sub'ekti qonun loyihasini qonunchilik palatasiga kiritguniga qadar jamoatchilik fikrini o'rganishni tashkil etishga haqli ekanligi, qonun loyihasi bo'yicha jamoatchilik fikrini o'rganish tartibi va shakli qonunchilik tashabbusi huquqi sub'ekti tomonidan belgilanishi nazarda tutilgan. Shunday ekan, "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonunning yangi tahririda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini davlat organlari va boshqa tashkilotlar ishtirokida tayyorlashda ularni muhokama qilish tartibini belgilovchi hamda normativ-huquqiy hujjatni tayyorlashda xalqaro tajribani o'rganish masalalariga oid normalar o'z aksini topishi lozim.

Shu o'rinda qonun ijodkorligi jarayoni bo'yicha Germaniya tajribasiga to'xtaladigan bo'lsak, mazkur davlatda qonunchilik tashabbusi tartibida aksariyat

qonun loyihalari Federal hukumat tomonidan kiritiladi. qonun loyihalari asosan mas'ul bo'lgan vazirliklar tomonidan ishlab chiqilib, ushbu jarayonda ular Federal Adliya vazirligi tomonidan tayyorlangan “qonun hujjatlarini rasmiylashtirish tartibi to'g'risidagi qo'llanma” (nem. «Handbuch der Rechtsformlichkeit») va “Ma'muriy va huquqiy hujjatlarni tayyorlash bo'yicha qo'llanma” (nem. «Handbuch zur Vorbereitung von Rechtsund Verwaltungsvorschriften»)lardan foydalanadi. “Federal hukumatning qo'shma reglamenti”da (nem. «Gemeinsame Geschäftsordnung der Bundesregierung») qonun loyihalarini tayyorlash jarayonlariga qaysi tashkilotlar jalb etilishi va ular qaysi bosqichlarda ishtirok etishi belgilab qo'yiladi. Mazkur tashkilotlarga qonun loyihasi bilan tartibga solinadigan masala bevosita taalluqli bo'lgan vazirliklar, kelajakda qonunning ijrosi zimmasiga yuklatiladigan tashkilotlar va muassasalar (odatda, federal o'lkalar), manfaatdor jamoat tashkilotlari (masalan, kasaba uyushmalari va boshqa assotsiatsiyalar)ni kiritish mumkin. o'ta muhim va bahsli loyihalar bo'yicha ularning fikrini eshitish maqsadida muhokamalar ochiq tadbirlar shaklida ham o'tkazilishi mumkin. Bunday uchrashuvlardan ko'zlangan maqsad, bir tomondan manfaatdor tashkilotlar va muassasalarning maxsus bilim va tajribalarini qonun loyihasiga kiritish orqali uni yanada takomillash-tirish bo'lsa, ikkinchi tomondan, keng doirada o'zaro kelishuvga erishish orqali kelajakda qonunni jamoatchilik tomonidan tez o'zlashtirilishiga erishishdan iborat bo'ladi.

Normativ-huquqiy hujjat loyihasini ekspertizadan o'tkazish nihoyatda dolzarb masalalardan hisoblanadi. Zero, normativ-huquqiy hujjatlarning sifati va huquqni qo'llash amaliyotida samarali ishlashi ko'p jihatdan uning qay darajada ekspertizadan o'tkazilganligiga bog'liq. Amaldagi “Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida”gi qonunda mazkur masalaga faqat bitta modda (18-modda) ajratilgan xolos. Biroq o'rganilgan ayrim davlatlar (Belarus, Ozarboyjon, Armaniston) qonunchilik tajribasida normativ-huquqiy hujjat loyihasini ekspertizadan o'tkazish masalasi alohida boblarda o'z ifodasini topganligini, unda iqtisodiy, moliyaviy,

ekologiya ekspertizalardan tashhari ilmiy va kriminologik ekspertiza o'tkazish tartibi, ekspertizani amalga oshiruvchi shaxslar va tashkilotlar, normativ-huquqiy hujjat loyihasini ekspertizadan o'tkazish uchun yuborish bo'yicha tashabbus bilan chiqish masalalari nazarda tutilganligini ko'rish mumkin. Shu bois, "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonunning yangi tahririda qonun loyihalari bo'yicha o'tkaziladigan ekspertizalarning turlariga aniqlik kiritish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

"Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonunning yangi tahririda normativ-huquqiy hujjatlarni ijrochi va aholiga etkazish, uning ijro etilishi va amalga oshirilishi bo'yicha nazorat va tekshiruvni nazarda tutish hamda normativ-huquqiy hujjatlarni ijro etilmasligi (lozim darajada ijro etilmasligi) bo'yicha javobgarlikni nazarda tutuvchi normalarni kiritish mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlash, aholining huquqiy ongi va savodxonligini yanada oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, qonun – bu huquqiy demokratik davlatning poydevori bo'lib, unda demokratiya va huquqiy davlat tamoyillari o'zaro uyg'unlashadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"da ta'kidlaganidek, mustaqil taraqqiyotimiz-ning o'tgan davrida amalga oshirgan ishlarimizni sarhisob qilar ekanmiz, ularni haqqoniy baholash va islohotlar dasturiga ma'lum o'zgartishlar kiritish bilan birga, birinchi navbatda ertangi kun talablaridan kelib chiqqan qolda, mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilish yo'lidagi izchil harakatlarimizni kuchaytirishimiz, ularni yangi, yanada yuqori bosqichga ko'tarishimiz darkor. Darhaqiqat, davlat va jamiyat hayotida muhim o'rin tutadigan "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining yangi tahrirda ishlab chiqilishi mamlakatimizda qonuniylilikni to'liq taminlash maqsadida yangi va yanada samarali mexanizmlarni yaratishga, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning amalda samarali tatbiq etilishiga hamda uning mavjud qonunlarga,

sotsial-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy islohotlar ehtiyojlariga mos bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

2. SUD HOKIMIYATINING NUFUZINI OSHIRISH MASALALARI

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq sohasidagi islohotlarning ustuvor yo`nalishlaridan biri – bu insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, avvalo, asossiz jinoiy ta'qib va xususiy hayotga aralashishdan himoyalaniş, shaxsiy daxlsizlik huquqlari hamda adolatli sud muhokamasiga bo`lgan huquqlarini samarali muhofaza etilishini ta'minlash hisoblanadi. Zero, har qanday demokratik davlatda sud tizimi inson huquqlari himoyasiga qaratilgan mexanizmning asosini tashkil qiladi.

Shu bois, fuqarolarning sud orqali himoyalaniş kafolatlarini jiddiy tarzda kuchaytirish maqsadida Prezidentimiz I.A.Karimov O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining 2005 yil 28 yanvarda bo`lib o`tgan qo`shma majlisidagi ma'ruzasida sud-huquq tizimidagi ustuvor yo`nalishlarga to`xtalib, "...boshqa demokratik davlatlar kabi O`zbekistonda ham shaxsni ushlab turish, hibsga olish, shuningdek, boshqa protsessual majburiy choralarini qo`llash uchun sanksiya berish huquqlarini ham sudlarga o`tkazish kerak", deya ta'kidlagan edi.

Ushbu g`oyaning amaliy ifodasi sifatida 2005 yil 8 avgustda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o`tkazish to`g`risida"gi Farmoni qabul qilindi va unda qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi 2008 yil 1 yanvardan e'tiboran sudlar vakolatiga o`tkazilishi belgilandi. Shuningdek, Farmonda belgilangan vazifani qonunchilik yo`li bilan hal etish maqsadida 2007 yil 11 iyulda "qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi sudlarga o`tkazilishi munosabati bilan O`zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o`zgartish va qo`shimchalar kiritish to`g`risida"gi O`zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilinib, 2008 yil 1 yanvardan e'tiboran kuchga kirdi.

qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini prokuratura organlaridan sudlarga o`tkazilgani o`z vaqtida va puxta o`ylab qabul qilingan qaror ekanligi o`z

isbotini topmoqda. Xususan, 2008 yilning yanvaridan buyon sudlar tomonidan dastlabki tergov organlariga 700 martadan ortiq holatda mazkur ehtiyot chorasini qo'llash rad qilingani yoki qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash haqida qanoatlantirilgan iltimosnomalar soni 2010 yilda 2009 yildagiga nisbatan 19,6 foiz kamaygani ham buni yaqqol tasdiqlab turibdi.

Sud hokimiyatining nufuzini oshirish, fuqarolarning adolatli sud muhokamasiga bo'lgan huquqlarini samarali ta'minlashga qaratilgan islohotlarning bugungi bosqichi davlatimiz rahbari tomonidan 2010 yil 12 noyabrda bo'lib o'tgan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida taklif etilganidek, sudga qadar ish yurituv bosqichida qo'llanadigan lavozimdan chetlashtirish va shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov choralarini faqat sudyaning sanksiyasi asosida qo'llash vaqti etganligini ko'rsatmoqda.

Demak, endilikda lavozimdan chetlashtirish va shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish amaldagi qonunchilikda belgilangani kabi surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi asosida emas, balki aynan sudyaning sanksiya asosida amalga oshirilishi, ikkinchidan, sanksiya berishga faqat sudya vakolatli ekanligi belgilanishi lozim bo'ladi.

Lavozimdan chetlashtirish jinoyat protsessida qo'llaniladigan protsessual majburlov choralaridan biri bo'lib, u ayblanuvchi va sudlanuvchiga nisbatan, agar ular o'z ish joyida qolsa jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlashga, jinoyat oqibatida etkazilgan zararni qoplashga to'sqinlik qiladi yoki jinoiy faoliyatini davom ettiradi, deb hisoblashga etarli asoslar bo'lsa qo'llaniladi. Bunday holatda lavozimidan chetlashtirilgan shaxsning mehnat qilish, erkin kasb tanlash kabi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasida belgilangan qator huquqlari qonunda belgilangan asoslarga ko'ra cheklanadi. Chunonchi, Konstitutsiyaning 19-moddasida belgilangan normaga ko'ra, fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari

daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas. Shuning uchun ham lavozimdan chetlashtirish faqat sudning sanksiyasi bilan qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Shu o'rinda xorijiy davlatlar jinoyat protsessual qonunchiligini kuzatadigan bo'lsak, Frantsiyada aynan lavozimdan chetlashtirishga o'xshash chora sudyaning tashabbusi bilan, shuningdek ayblovchining taklifi yoki manfaatdor ishtirokchilarning iltimosnomasi bilan sud tomonidan qo'llaniladi. AQSh, Germaniya qonunchiligida ham ayblanayotgan shaxs sudyaning qarori bilan shartli ravishda vaqtinchalik lavozimdan chetlashtirilishi mumkin. Belarus Respublikasi Jinoyat-pootsessual kodeksining 131-moddasiga ko'ra, vaqtincha lavozimdan chetlashtirish prokuror yoki uning o'rinbosari sanksiyasi bilan surishtiruvchi, tergovchi tomonidan yoki sudning o'zi tomonidan qo'llanilishi mumkin. Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksining 114-moddasiga muvofiq, vaqtincha lavozimdan chetlashtirish tergovchi tomonidan tergov organi boshliqining, surishtiruvchi tomonidan prokurorning roziligi bilan sudga yuborilgan taqdimnomaga asosan sud tomonidan qo'llaniladi.

Shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish jinoyat protsessida qo'llaniladigan shaxsning huquq va erkinliklarini bevosita cheklovchi protsessual majburlov choralaridan biri bo'lib, amaldagi qonunchilikka muvofiq, prokuror rozilik bergan surishtiruvchi yoki tergovchining qaroriga, prokurorning qaroriga yoxud sudning ajrimiga asosan qo'llaniladi. Mazkur majburlov chorasi ham shaxs erkinligini bevosita cheklaganligi uchun ham sudning sanksiyasi bilan qo'llanilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mazkur masalaga oid xorijiy davlatlarning qonunchiligi tahlili shuni ko'rsatadiki, Germaniya, AQSh va Frantsiyada shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish prokurorning murojaati yoki iltimosnomasi bo'yicha sud tomonidan qo'llaniladi. Rossiya Federatsiyasi va Belarus Respublikasida ham tibbiy xarakterdagi majburlov chorasi sudning sanksiyasi asosida qo'llaniladi.

Aytish joizki, lavozimdan chetlashtirish va shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov choralarini faqat sudyaning sanksiyasi asosida qo'llash tartibining joriy etilishi surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida sud nazoratini kuchaytirish, jinoyat protsessida "Xabeas korpus" institutini qo'llash sohasini yanada kengaytirish imkonini beradi.

Shu o'rinda lavozimdan chetlashtirish va shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov choralarini faqat sudyaning sanksiyasi asosida qo'llash tartibini belgilash taklifining quyidagi qator ob'ektiv sabab va omillarga asoslanganligini aytish mumkin:

birinchidan, surishtiruv, dastlabki tergov va prokuratura organlari asosan jinoyatchilikka harshi kurashuvchi, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi va sudda davlat ayblovini quvvatlovchi idoralar hisoblanadi. Shu sababli bunday holat surishtiruv, tergov va sud amaliyotida fuqarolar erkinligi hamda daxlsizligini ta'minlash uchun yanada xolis va samarali mexanizm joriy etilishini taqozo etdi;

ikkinchidan, lavozimdan chetlashtirish va shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov choralarini faqat sudyaning sanksiyasi asosida qo'llanilishi, dastlabki tergov ustidan sud nazoratini olib borishning samarali usullaridan biri hisoblanadi. Bunday tartib dastlabki tergov bosqichidayoq inson huquqlari buzilishi, qonunga xilof ravishda shaxsni lavozimdan chetlashtirish yoki shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirishga chek qo'yishga, pirovardida esa surishtiruv va tergov organlari xodimlarining mas'uliyatini, dastlabki tergovning sifatini oshirishga xizmat qiladi;

uchinchidan, sudyalar mustaqildirlar va faqat qonunga bo'ysunadilar. Sud tergov organidan yoki prokuror nazoratidan ham mustaqil ravishda qonunga bo'ysungan qolda faoliyat ko'rsatadi. Shu bois, lavozimdan chetlashtirish va shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov choralarini faqat sudyaning sanksiyasi asosida qo'llanilishida sudlarning xolis bo'lish

imkoniyatlari kengroq bo`lib, faqat ulargina insonning Konstitutsiya va qonun bilan mustahkamlangan huquqlarini cheklashi yoki ulardan mahrum qilishi mumkin;

to`rtinchidan, bunday tartib xalqaro huquqning umume'tirof etilgan printsip va normalariga jumladan, Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 10-moddasida belgilangan – “har bir inson huquq va burchlarini belgilash va unga qo`yilgan jinoiy aybning qanchalik darajada asosli ekanligini aniqlashi uchun to`liq tenglik asosida uning ishi oshkora va adolat talablariga rioya qilingan qolda mustaqil va xolis sud tomonidan ko`rib chiqilishi huquqiga ega” hamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to`g`risidagi xalqaro Paktning 2-moddasida belgilangan – “ushbu Paktda ishtirok etuvchi har bir davlat ...har qanday shaxs uchun sud orqali himoyalaniishi imkoniyatini rivojlantirishni o`z zimmasiga oladi”, degan normalarga to`la muvofiqdir.

qolaversa, lavozimdan chetlashtirish va shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov choralarini faqat sudyaning sanksiyasi asosida qo`llash tartibining belgilanishi:

- fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo`yilgan huquq va erkinliklari daxlsiz ekanligi, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo`yishga hech kim haqli emasligi haqidagi konstitutsiyaviy normaning ro`yobga chiqishini;

- fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini odil sud orqali muhofaza qilishni kuchaytirishga hamda qo`shimcha kafolatlarning belgilanishini;

- sudga qadar ish yuritish bosqichida fuqarolar huquqlarini samarali himoya qilishni amalga oshirishda hamda ularning daxlsizligini ta'minlashda sudning vakolatlarni kengaytirishni;

- sudning mustaqilligi, sud hokimiyatining ta'sirchanligi oshishini, fuqarolarning sudlarga bo'lgan ishonchining mustahkamlanishini;
- ijtimoiy hayotimizda odil sudlov tamoyillarining yanada to'laroq namoyon bo'lishini ta'minlaydi.

Bundan tashhori, mazkur ijobiy o'zgarishlar xalqaro hamjamiyatning ham yuksak e'tirofiga sazovor bo'layotganligini qayd etish lozim. Chunonchi, Singapur xalqaro tadqiqotlar maktabi doktori Arabinda Acharyaning – “O'zbekistonda o'lim jazosining bekor qilinishi, “Xabeas korpus” va yarashuv institutlarining ta'sis etilishi mazkur islohotlarning nechog'li samarador ekanligining yaqqol dalolatidir”, deb yurtimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq tizimidagi islohotlarga o'zining xolis fikrini bayon etgan.

Mustaqilligimizning o'tgan huriyb yigirma yillik qisqa tarixiy davrida, ayniqsa so'nggi yillarda mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida inson huquqlarini samarali himoya qilishning eng muhim kafolati sifatida sud hokimiyatining nufuzini mustahkamlash, sudlarning chinakam mustaqilligini ta'minlash, ularning demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyat barpo etishdagi rolini kuchaytirish hamda jinoyat protsessida o'zaro tortishuv printsipini yanada samarali ta'minlashga qaratilgan muhim ishlar amalga oshirildi.

Avvalo, 1992 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida sud alohida hokimiyat ekanligi, sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil qolda ish yuritadi. Shuningdek, sudyalar mustaqildirlar, ular faqat qonunga bo'ysunadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi. Sudyalarning daxlsizligi qonun bilan kafolatlanadi, deb qat'iy belgilab qo'yildi.

Mazkur konstitutsiyaviy normalarni izchil amalga oshirish maqsadida sud-huquq tizimini tartibga soluvchi qonun hujjatlari to`la qaytadan tayyorlanib, milliy an'alarimiz, ilg`or demokratik davlatlarning tajribasi hamda inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlar talablariga mos “Sudlar to`g`risida”gi, “Prokuratura to`g`risida”gi, “Advokatura to`g`risida”gi qonunlar hamda Jinoyat, Jinoyat-protsessual va Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodekslar qabul qilindi. Ularda, aybsizlik prezumtsiyasi, himoyaga bo`lgan huquq, sud jarayonidagi tortishuv va oshkoralik kabi umume'tirof etilgan printsiplar belgilab qo`yildi.

Sudlarning jinoyat, fuqarolik va xo`jalik ishlari bo`yicha ixtisoslashtirilishi qonunan mustahkamlab qo`yildi. Ishlarni ko`rib chiqishning apellyatsiya tartibi joriy etildi va kassatsiya instantsiyasi isloh qilindi. qamoqqa olish tarizidagi ehtiyot chorasini qo`llash prokuratura organlaridan sudlarga o`tkazildi. Amnistiya aktini qo`llash to`laligicha sudlar vakolatiga berildi. Shuningdek, sudlarning ularga xos bo`lmagan vazifalardan sezilarli darajada xalos qilish va butun diqqat-e'tiborini o`zlarining asosiy burchi bo`lmish odil sudlovni amalga oshirish uchun imkoniyat yaratishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirildi.

Jinoyat protsesida o`zaro tortishuv bo`lishini ta'minlashga qaratilgan keng ko`lamli izchil chora-tadbirlar natijasida sud protsessida ayblovl bilan himoyaning huquqiy jihatdan tengligini, sud protsessida tortishuv printsiplarini amalga oshirishni ta'minlaydigan huquqiy mexanizmlar yaratildi. Xususan, himoyachining ishda ishtirok etishiga jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligiga bo`lgan huquqi amalda cheklangan paytdan boshlab ruxsat etilishi belgilab qo`yildi. himoyachiga Jinoyat-protsessual kodeksining 87-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq, dalillar sifatida foydalanilishi mumkin bo`lgan ma'lumotlarni to`plash va taqdim etish vakolati berildi.

Ayni paytda sud mustaqilligini yanada mustahkamlash, odil sudlov tamoyillarini rivojlantirish va eng muhimi jinoyat protsessida o`zaro tortishuv printsiplarini samarali qo`llanilishini kengaytirishga qaratilgan islohotlarning bugungi

bosqichi talablaridan kelib chiqib, davlatimiz rahbari tomonidan 2010 yil 12 noyabrda bo`lib o`tgani Oliy Majlis palatalarining qo`shma majlisidagi ma'ruzasida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 439-moddasiga o`zgartish kiritish va unga muvofiq birinchi instantsiya sudida ish bo'yicha ayblov xulosasini o`qib eshittirish majburiyatini faqat prokuror zimmasiga yuklashni nazarda tutadigan norma o`rnatish taklif etildi.

Chunki, amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksida davlat ayblovchisi, yani prokurorning sud tergovida ayblov xulosasini o`qib eshittirish bo'yicha majburiyati aniq belgilanmagan.

qolaversa, Jinoyat-protsessual kodeksining 439-moddasida sud tergovi ayblov xulosasini o`qib eshittirishdan boshlanadi, degan umumiy va mavhum norma belgilanganligi bois, bugungi kunda ayblov xulosasini ko`pincha sudyalardan tomonidan o`qib eshittirish kabi nomuvofiq amaliyot shakllangan. Bu esa, sudning vazifa va maqsadlariga mutlaqo mos kelmaydi hamda jinoyat protsessida o`zaro tortishuv printsiptini amalga oshirishga to'sqinlik qiladi. Zero, o`zaro tortishuv printsiptiga ko`ra, sud ayblov yoki himoya tarafida turmaydi hamda ularning biron-bir manfaatlarini ifodalamaydi.

Vaqolanki, sudlar Jinoyat-protsessual kodeksining 25-moddasi talablariga, ya'ni ishlar sud majlisida taraflarning o`zaro tortishuvi printsipti asosida ko`rilishi shartligi haqidagi qoidaga so`zsiz amal qilinishini ta'minlashlari kerak.

o`z navbatida tortishuv printsipti ayblov va himoya funktsiyalari bir-biridan ajratilgan qolda amalga oshirilishini taqozo etadi. Bunda sud ayblov yoki himoya tarafida turmasligi hamda ularning biron bir manfaatlarini ifoda etmasligi lozim. Sud xolislik va beharazlikni saqlagan qolda faqat ishni hal etish funktsiyasini amalga oshirishi, ya'ni taraflarga protsessual huquqlarini amalga oshirish yo`li bilan o`z nuqtai nazarlarini himoya qilishlari uchun teng imkoniyat yaratib berishi kerak.

Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan birinchi instantsiya sudida ish bo'yicha ayblov xulosasini faqat prokuror tomonidan o'qib eshittirish lozimligi haqidagi taklif ham aynan sud protsessida tortishuvni yanada kuchaytirishga qaratilgandir. Zero, qonun hujjatlarida belgilangan tartibdagi o'zaro tortishuv, baxs va munozalar ishni ko'rishda haqiqatni aniqlashga, pirovardida inson taqdiri yuzasidan adolatli qaror qabul qilishning etakchi omillaridan biri hisoblanadi.

Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan normalarga muvofiq, ayblov xulosasi tergovchi tomonidan tuziladi va imzolanadi. Tergovchi ayblov xulosasini imzolaganidan keyin jinoyat ishini darqol prokurorga yuboradi. Prokuror surishtiruv va dastlabki tergov organlari tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirib, o'z vakolati doirasida ayblov xulosasini tasdiqlaydi va ishni sudga yuboradi.

Bu o'rinda, tabiiy savol tuqiladi: nima sababdan tergovchi tomonidan tuzilgan va prokuror tomonidan tasdiqlangan ayblov xulosasini sud tergov vaqtida prokurorning o'zi bevosita ishtirok etib turgan holatda, sudya tomonidan o'qib eshittirilishi kerak? Shuning uchun ham prokuror tomonidan tasdiqlangan va uning nuqtai nazarini o'zida ifoda etgan ayblov xulosasi faqat prokuror tomonidan o'qib eshittirilishi maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga amaliyotda o'zaro tortishuv sud majlisida prokuror va himoyachining uzluksiz ishtiroki ta'minlangan qoldagina to'la ro'yobga chiqadi. Shu bois, sudlardan o'z faoliyatlarida mazkur vazifaga jiddiy e'tibor qaratishlari lozim bo'ladi.

Shu o'rinda xorijiy davlatlar jinoyat protsessual qonunchiligini kuzatadigan bo'lsak, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksining 273-moddasi hamda Belarus Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 324-moddasiga muvofiq, sud tergov davlat ayblovchisi tomonidan ayblov xulosasini o'qib eshittirish bilan boshlanadi. Germaniya qonunchiligiga ko'ra, sud tergov

sudlanuvchini tergov qilishdan boshlanishi bois, ayblov xulosasi sud tomonidan o`qib eshittirilishi mustahkamlangan. Ukraina Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 297-moddasi hamda Ozarbayjon Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 324-moddasida ayblov xulosasi prokuror (davlat ayblovchisi) tomonidan e'lon qilinishi va ayblov xulosasining rezolyutiv qismi prokuror tomonidan o`qib eshittirilishi bilan boshlanishi belgilangan.

Shu ma'noda, jinoyat-protsessual qonunchiligida ayblov xulosasini o`qib eshittirish majburiyatini faqat prokuror zimmasiga yuklashni nazarda tutadigan normaning belgilanishi:

birinchidan, Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan sudning mustaqilligini, ishni ko`rishda xolisligi va adolatli qaror qabul qilishini, pirovardida odil sudlov tamoyillarini yanda rivojlanishini;

ikkinchidan, jinoyat protsessida muhim ahamiyatga ega o`zaro tortishuv printsiptini amalda, ya'ni sud tergov vaqtida tortishuv aynan ayblov tomonda turuvchi prokuror bilan himoya tomonda turuvchi advokat o`rtasida boshlanishini;

uchinchidan, Jinoyat-protsessual kodeksining 25-moddasida belgilangan sudda ko`rilayotganda ayblash, himoya qilish va ishni hal qilish vazifalari bir-biridan alohida bajarilib, aynan bir organ yoki aynan bir mansabdor shaxs zimmasiga yuklatilishi mumkin emas, degan qoidaning to`liq ro`yobga chiqishini ta'minlaydi.

Shunday qilib, jinoyat-protsessual qonunchiligiga birinchi instantsiya sudida ish bo`yicha ayblov xulosasini o`qib eshittirish majburiyatini faqat prokuror zimmasiga yuklashni nazarda tutadigan normani kiritilishi sudning mustaqilligi, xolisligi va beharazligini taminlashga, jinoyat protsessida tortishuv printsiptini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. Zotan, odil sudlovning amalga oshirilishi, jinoyat protsessida fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan huquq va erkinliklarini samarali ta'minlanishi ayblov xulosasini sud majlisida ishni hal

qiluvchi sud'ya tomonidan emas, aynan ayblovni qo'llab-quvvatlovchi prokuror tomonidan o'qib eshittirilishiga ham bevosita bog'liqdir.

Sud-huquq tizimini yanada rivojlantirishga qaratilgan islohotlarning bugungi bosqichi talablaridan kelib chiqib, sudlardan ularga xos bo'lmagan vakolatlarni bosqichma-bosqich chiqarishga qaratilgan islohotlarning mantiqiy davomi sifatida Prezidentimiz I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrda bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"da sud-huquq tizimini isloh etishga qaratilgan galdagi vazifalarga to'xtalib, "...O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 321-moddasidan sudning jinoyat ishi qo'zg'atishga doir vakolatini chiqarish maqsadga muvofiq bo'lur edi", degan taklifni bayon etdi.

Darhaqiqat, amaldagi protsessual qonunchilikka, jumladan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan normalarga ko'ra, sud ham surishtiruvchi, tergovchi, prokuror bilan bir qatorda jinoyat alomatlari topilgan, jinoyat sodir etilganligi to'g'risida sabab va etarli asoslar mavjud bo'lgan barcha qollarda o'z vakolati doirasida jinoyat ishini qo'zg'atishi shart. Jinoyat ishini qo'zg'atish haqida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror qaror, sud esa ajrim chiqaradi. Sudya ma'muriy huquqbuzarlikka doir ishni yuritishda yoki fuqaroviy ishni yoxud boshqa jinoyatga doir ishni yuritish chog'ida jinoyatga oid ma'lumotlarni aniqlagan qollarda jinoyat ishini qo'zg'atib, jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risida ajrim chiqaradi va ishni dastlabki tergov yuritish uchun prokurorga yuboradi.

Bundan tashhari, O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik protsessual kodeksi 152-moddasining uchinchi qismida agar xo'jalik nizosini ko'rib chiqish chog'ida sud mansabdor shaxs xatti-harakatlarida jinoyat alomatlarini aniqlasa, u jinoyat ishi qo'zg'atadi hamda etkazilgan zarar undirilishini ta'minlash uchun unga tegishli mol-mulkni xatlab qo'yadi, degan norma belgilangan bo'lib, mazkur normaga

muvofig, bugungi kunda xo`jalik sudlari ham jinoyat ishini qo`zg`atish vakolatiga ega.

Shu o`rinda statistik ma'lumotlarga murojaat etadigan bo`lsak, Oliy suddan olingan ma'lumotlarda jinoyat ishlari bo`yicha respublika sudlari tomonidan 2009 yilda jami 145 ta, 2010 yilda jami 123 ta jinoyat ishi qo`zg`atilgan. Shuningdek, Oliy xo`jalik sudidan olingan ma'lumotlarga ko`ra, respublika xo`jalik sudlari tomonidan 2008 yilda jami jinoyat ishi qo`zg`atish to`g`risida chiqarilgan xususiy ajrimlar soni 47 tani, 2009 yilda 42 tani, 2010 yilda 32 tani tashkil etgan. Demak, o`tgan yillar davomida xo`jalik sudlari tomonidan qo`zg`atilgan jinoyat ishlari statistikasini tahlil qiladigan bo`lsak, garchi xo`jalik sudlari jinoyat ishi qo`zg`atishga vakolatli bo`lsa-da, ular tomonidan jinoyat ishlarini qo`zg`atish amaliyoti yildan-yilga kamayib borayotganligini ko`rsatmoqda. Bu ham bo`lsa, davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan taklif, ya'ni sudlardan jinoyat ishi qo`zg`atish vakolatini chiqarishni o`z vaqtida qabul qilingan qaror ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Eng muhimi, jinoyat ishini qo`zg`atish avvalo surishtiruv va dastlabki tergov organlari, jinoiy ta'qibni amalga oshiradigan boshqa huquq-tartibot organlarining vazifasi hisoblanadi. Suddan esa shaxsga qo`yilgan ayblovning qonuniy va asosli ekanini xolis baholash talab etiladi.

qolaversa, hozirgi paytda sud tomonidan jinoyat ishini qo`zg`atish tarzidagi protsessual harakatning amalga oshirilishi mog`iyatan jinoiy taqibning va undan kelib chiqadigan barcha oqibatlarining boshlanishi hisoblanadi. Bu esa sudni jinoiy taqib ishtirokchilari toifasiga kiritib qo`yadi. Aytish kerakki, bunday amaliyot sudning oliy maqsadi bo`lgan odil sudlovni amalga oshirish tamoyiliga mutlaqo mos kelmaydi.

Shu o`rinda xorijiy davlatlar jinoyat protsessual qonunchiligini kuzatadigan bo`lsak, Germaniya JPKning 170-moddasiga ko`ra, jinoyat ishi

prokuror tomonidan qo`zg`atiladi va tegishli sudga yuboriladi. Belarus Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 175-moddasiga ko`ra, prokuror, tergovchi va surishtiruvchi, Ukraina Jinoyat-protsessual kodeksining 98-moddasiga binoan prokuror, tergovchi, surishtiruv organi yoki sudya jinoyat ishi qo`zg`atish vakolatiga ega. Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksining 146-moddasiga muvofiq, surishtiruv organi, surishtiruvchi, tergovchi, tergov organi rahbari jinoyat ishi qo`zg`atish vakolatiga ega.

Shu ma'noda, protsessual qonunchilikda sudning jinoyat ishi qo`zg`atishga doir vakolatini chiqarishni nazarda tutadigan normaning belgilanishi birinchidan, sudning mustaqilligini, ishni ko`rishda xolisligi va adolatli qaror qabul qilishini, pirovardida odil sudlov tamoyillarini yanda rivojlanishini; ikkinchidan, sudyalarni sudning oliy maqsadi bo`lgan odil sudlovni amalga oshirish tamoyiliga mutlaqo mos kelmaydigan jinoiy taqib bilan bog`liq vakolatdan xalos bo`lishini; uchinchidan, sudni jinoiy taqib ishtirokchilari toifasidan chiqarilishini ta'minlaydi.

Shu bois, 2011 yil 14 yanvarda qabul qilingan O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlash-tirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasining sud-huquq tizimini isloh etish sohasida amalga oshirilishiga doir chora-tadbirlari to`g`risida”gi Farmoyishida ham nafaqat jinoyat ishlari bo`yicha hamda harbiy sudlardan, shu bilan birga xo`jalik sudlaridan ham jinoyat ishi qo`zg`atish vakolatini chiqarishni nazarda tutuvchi “O`zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 321-moddasiga va Xo`jalik-protsessual kodeksi-ning 152-moddasiga o`zgartishlar kiritish to`g`risida”gi qonun loyihasini O`zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Oliy sudi va Oliy xo`jalik sudiga birgalikda ishlab chiqish vazifasi belgilandi.

Shunday qilib, protsessual qonunchilikka sudning jinoyat ishi qo`zg`atishga doir vakolatining chiqarilishini nazarda tutadigan normaning kiritilishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq tizimini isloh

etishning mantiqiy davomi sifatida sudning xolisligini taminlashga, eng muhimi sudning oliy maqsadi bo'lgan odil sudlovni amalga oshirish tamoyiliga mutlaqo mos kelmaydigan vakolatdan xalos bo'lishiga xizmat qiladi. Pirovardida, sudyaning o'zi qo'zg'atgan jinoyat ishiga kelgusida o'zi munosabat bildirishini oldini olish orqali sudlanuvchining qilmishlariga nisbatan adolatli qaror qabul qilishga omil bo'ladi.

3. TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSINI YARATISH

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida umume'tirof etilgan demokratik tamoyillarga asoslangan qolda inson huquqlarining ustuvorligini ta'minlash, shu jumladan jinoyatchilikka harshi kurashish va eng muhimi jinoyatlar sodir etilishining dastlabki bosqichlaridayoq ularning oldini olish hamda o'z vaqtida to'xtatish bo'yicha choralarning samaradorligini oshirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shunga haramay, jamiyat rivojining qonuniyatlari, davlatning jinoyatchilikni oldini olish va unga harshi kurashga qaratilgan ta'sirining o'ziga xos xususiyatlari takomillashayotgan sharoitda inson va jamiyatning jinoiy xurujlardan himoya qilishda tezkor-qidiruv xususiyatidagi tadbirlarning huquqiy asosini yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shu bois, avvalo tezkor-qidiruv xususiyatidagi tadbirlarni tartibga soluvchi mavjud qonun hujjatlarini tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Demak, bugungi kunda tezkor qidiruvni amalga oshirishga vakolatli organlarning faoliyati O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodek-sining 339-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 68-moddasi va "Terrorizmga harshi kurash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 4-moddasi bilan tartibga solingan. Jumladan, Jinoyat-protsessual kodeksining 339-moddasi ikkinchi qismiga ko'ra, surishtiruv organlari zimmasiga jinoyat alomatlarini va jinoyat sodir etgan shaxslarni topish, ushbu Kodeksning qoidalariga muvofiq tekshirib chiqilganidan so'ng jinoyat ishi yuzasidan dalil tariqasida foydalanish mumkin bo'lgan ma'lumotlarni aniqlash maqsadida ilmiy-texnika vosita-larini qo'llagan qolda zarur choralarni ko'rish yuklatiladi. Ichki ishlar, milliy xavfsizlik xizmati va

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga harshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo'linmalari organlari bu maqsadda tezkor-qidiruv choralari ham ko'rishga haqlidir. Jinoyat-ijroiya kodeksining 68-moddasi ikkinchi qismida esa tezkor-qidiruv faoliyatini jazoni ijro etish muassasalarining tezkor xizmatlar xodimlari, shuningdek boshqa vakolatli organlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirishi belgilangan. qolversa, "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi qonunning 5-moddasi o'n birinchi xatboshisida bojxona organlari xodimlari ham tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirishi belgilangan. Biroq, bojxona organlari tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi sub'ekt sifatida Jinoyat-protsessual kodeksida o'z aksini topmagan.

Tezkor-qidiruv faoliyatini tartibga soluvchi yuqoridagi qonun hujjatlarining tahlili bugungi kunda ushbu sohadagi qonunchilik bazasini tubdan, tamomila yangicha printsiplar asosida ishlab chiqishni taqozo etadi. Chunki, yuqorida ko'rsatilgan qonun hujjatlarida tezkor-qidiruv faoliyatiga oid umumiy normalargina belgilangan bo'lib, tezkor-qidiruv xususiyatidagi tadbirlarni amalga oshirish printsiplari, shuningdek bunday tadbirlarni o'tkazishning aniq mexanizmi va tartibi tizimli ravishda belgilanmagan. Bu esa o'z navbatida, sohani tartibga solib turuvchi maxsus qonun hujjatini qabul qilish zaruriyati mavjudligini keltirib chiqarmoqda.

Mazkur muammoning echimi sifatida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrda bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" nomli ma'ruzasida tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish printsiplari, asoslari, shakl va uslublari, uni olib boradigan organlar tizimini belgilab beradigan "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonunni qabul qilish taklifi ilgari surildi.

Mazkur taklifning ijrosini o'z vaqtida ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 14 yanvardagi "Mamlakati-mizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasining sud-huquq tizimini isloh etish sohasida amalga oshirilishiga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoyishida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, IIV, Bosh prokuratura, MXX, DB va Adliya vazirligi birgalikda "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqishlari belgilab qo'yildi.

Ushbu sohadagi xorijiy davlatlar qonunchiligini o'rganish davomida bunga o'xshash qonun Rossiya Federatsiyasi, Ozarbayjon, Ukraina, Belarus va Moldova respublikalarida amal qilayotganligini kuzatish mumkin. Jumladan, Rossiya Federatsiyasining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Federal qonunida, tezkor-qidiruv faoliyat, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirishda shaxsning huquq va erkinliklariga rioya etish, tezkor-qidiruv tadbirlarini olib borish shartlari, tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanish, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi idoralarga fuqarolarning yordami, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi idoralarning huquqlari, tezkor-qidiruv faoliyati vazifalarini bajarishga jalb qilingan shaxslarning ijtimoiy-huquqiy himoyasi kabi normalar o'z aksini topgan.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, yangi ishlab chiqiladigan "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonun loyihasida quyidagilar o'z ifodasini topishi lozim:

Birinchidan, mazkur qonunning maqsadi, tezkor-qidiruv faoliyati sohasidagi tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni tartibga solish, ushbu faoliyatning mog'iyati va asosiy yo'nalishlari, uni o'tkazish vakolati berilishini tartibga solish, umuminsoniy qadriyatlar, konstitutsiyaviy huquqlar va shaxs erkinliklariga rioya etish ustuvorligidan kelib chiqqan qolda huquqiy kafolatlar tizimini mustahkamlash ekanligini belgilash zarur.

Ikkinchidan, mazkur qonunda inson huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlatning xavfsizligi va manfaatlarini ta'minlash, jinoyatlarni aniqlash, oldini olish, to'xtatish va ochish, ularga daxldor bo'lgan shaxslarni aniqlash, surishtiruv, dastlabki tergov organlari va suddan yashiringan, jinoiy jazoni o'tashdan bo'yin tovlab qochib yurgan shaxslarning qidiruvini amalga oshirishga qaratilgan tezkor-qidiruv xususiyatdagi tadbirlarni tartibga solishga qaratilgan vazifalarni mustahkamlash lozim. Shu bilan birga, tezkor-qidiruv xususiyatdagi tadbirlarni amalga oshirishning asosiy printsiplari sifatida – qonuniylik, insonparvarlik, odillik, inson huquq va erkinliklariga rioya etish, shuningdek, maxfiylik, oshkora va nooshkora usullar orqali amalga oshirish kabilarni belgilash kerak.

Uchinchidan, mazkur vazifalar va printsiplarni ta'minlash hamda belgilangan maqsadga erishish uchun xorijiy davlatlarning shu sohaga oid qonunchilik tajribasi o'rganish, tezkor-qidiruv harakatlarining yopiq, qat'iy chegaralangan ro'yxatini, ularni amalga oshirishning asoslari va shartlarini, tezkor tekshiruv materiallarini tayyorlash mexanizmi va uning tarkibiy qismlarini, tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanishning tartibi va yuridik kuchini hisobga olish, tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishning shakllari, asoslari va shartlarini ko'rsatish, ushbu tadbirlarni o'tkazish taqiqlanadigan holatlarni belgilash zarur.

To'rtinchidan, bugungi kunda tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirishga vakolatli organlarga Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati, Bosh prokuratura huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga harshi kurash Departamenti, shuningdek, Davlat bojxona qo'mitasi kiradi. Binobarin, qonunda ularning tezkor-qidiruv faoliyati sohasidagi maqomini belgilash bilan bir qatorda, ularning mansabdor shaxslarini huquqiy va ijtimoiy himoyasiga doir, shuningdek mazkur faoliyatni boshqa davlat organlari, tashkilotlar va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilishini taqiqlashga oid me'yorlarni ifoda etish lozim.

Beshinchidan, tezkor-qidiruv xususiyatidagi tadbirlarni amalga oshiruvchi organlari faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida axborot ta'minoti va tezkor-qidiruv faoliyati natijalarini hujjatlashtirish qoidalarini, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar ma'lumotlarining oshkoralik va himoya me'yorlarini, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning moliyaviy va moddiy-texnik jihatdan ta'minlash tartibini hamda tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar va mansabdor shaxslarning harakatlari ustidan shikoyat qilish bilan bog`liq bir qator normalarni belgilash lozim.

Shunday qilib, Kontseptsiyada ilgari surilgan "Tezkor-qidiruv faoliyati to`g`risida"gi qonunning qabul qilinishi mamlakatimizda jinoyatchilikka harshi kurash va uning oldini olish bo`yicha choralarning samaradorligini, shuningdek, surishtiruv va dastlabki tergovning sifatini yanada oshirishga, eng muhimi pirovardida tezkor-qidiruv xususiyatidagi tadbirlarni o`tkazishda fuqarolarning huquq va erkinliklarini taminlashga xizmat qiladi.

4. SUD-HUQUQ TIZIMINI IZCHIL DEMOKRATLASHTIRISH VA LIBERALLASHTIRISHNING AHAMIYATI VA ZARURATI

Milliy qonunchilik tizimida O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik kodeksi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlari inson va jamiyat farovonligi yo'lida fuqarolarning huquq va erkinliklarini, mulkni, davlat va jamoat tartibini, tabiiy muhitni muhofaza qilishni, ijtimoiy adolat va qonuniylikni ta'minlashni, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarning o'z vaqtida va ob'ektiv ko'rib chiqilishini, shuningdek bunday huquqbuzarliklarning oldini olishni, fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalashni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun esa ushbu Kodeks qanday harakat yoki harakatsizlik ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanishini, ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga nisbatan qaysi organ (mansabdor shaxs) tomonidan qay tartibda qanaqa ma'muriy jazo qo'llanilishi va ijro etilishini belgilaydi. Binobarin, Kodeksga 1994 yildan bugungi kunga qadar 60 dan ortiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligining asosiy sababi ham shundadir. Bundan tashhari, Kodeksga bu qadar ko'p o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishining quyidagi ob'ektiv sabablari ham bor. Birinchidan, mazkur holat kodeks tomonidan tartibga solinadigan munosabatlar doirasining kengligi va turli-tumanligi hamda mazkur munosabatlarga doir islohotlarning izchil ravishda amalga oshirilayotganligi. Ikkinchidan, davlat boshqaruvi sohasini takomillashtirishga oid o'zgarishlar bo'layotganligi. Uchinchidan, mamlakatimizda jinoiy va ma'muriy yurisdiksiyada belgilangan jazolarni liberallashtirishga doir islohotlarning amalga oshirilayotganligi. To'rtinchidan, ijtimoiy munosabatlarning muayyan jabhasini tartibga solishga qaratilgan yangi qonun hujjatining qabul qilinishi natijasida yuzaga kelayotgan huquqiy munosabatlar ishtirokchilari uchun ma'muriy javobgarlikni belgilashga bo'lgan ehtiyojning vujudga kelayotganligi

shular jumlasidandir. Binobarin, Kodeks va unga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng hamrovli islohotlar jarayonida ulkan sotsial va ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etganini takidlash o'rinlidir.

Ayni paytda, mamlakatimizda siyosiy, iqtisodiy, davlat-huquqiy munosabatlarning butun tizimini modernizatsiya qilish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, inson huquq va erkinliklarini himoya etish bo'yicha oldimizda turgan keng ko'lamli vazifalar sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish masalasini kun tartibiga qo'yayotgani barchamizga ma'lumdir. Shu ma'noda, mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrda bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi "Mamlaka-timizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" nomli ma'ruzasida faol rivojlanib borayotgan demokratlashtirish jarayonlarini inobatga olgan qolda O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksni har tomonlama qayta ishlash va yangi tahririni qabul qilish lozimligiga oid taklifning o'z vaqtida ilgari surilganligi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, mazkur Kodeksni qabul qilish zarurati Kontsepsiyada ham ta'kidlangan bo'lib, birinchidan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning yangi tahriri sud-huquq tizimini liberallashtirish munosabati bilan ma'muriy qonunchilik, jinoiy-huquqiy siyosatda yuz bergan katta miqyosdagi printsipl o'zgarishlarni o'zida tizimli va keng ko'lamli tarzda aks ettirishi lozimligida. Bunda avvalambor, jinoyat qonunchiligini tobora liberallashtirish, ya'ni ayrim qonunbuzarlik holatlarini jinoiy yurisdiktsiyadan ma'muriy yurisdiktsiyaga o'tkazishni nazarda tutish zarur. Ikkinchidan, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rishning protsessual mexanizmlarini takomillashtirish, yanada demokratlashtirish lozim. Uchinchidan, Kodeks bilan tartibga solinadigan sohada qonuniylikni ta'minlash va fuqarolarning huquqlarini ishonchli himoyalash bo'yicha chora-tadbirlarni belgilash kabilar

shular jumlasidandir. Bundan tashhari, ma'ruzada Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, Kodeksning yangi tahrirda qabul qilinishi bugungi kunda o`nlab normativ-huquqiy hujjatlarda o`z aksini topgan ma'muriy javobgarlikka oid qonunchilikning unifikatsiya-lashuvini ham ta'minlashga xizmat qiladi.

Vaqt doim harakatda, munosabatlar esa o`zgaruvchan bo`ladi. Shu boisdan, O`zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksning yangi tahririni tayyorlashda huquqni qo`llash amaliyotida e'tibor qaratilishi lozim bo`lgan jihatlarni inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Xususan, huquqni qo`llash va sud amaliyotiga 2001 yildan boshlab kiritilgan va u samarasini berayotgan yarashuv institutini ma'muriy yurisdiksiyada ham joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, mazkur institutning samaradorligi hamda o`zbek xalqining rahmdillik va kechirimlilik kabi ko`p asrlik an'analariga mosligi uning izchillik bilan kengayib borishiga asos bo`lmoqda.

Shuningdek, Kodeksda jinoyat qonunchiligini tobora liberallasuvi inobatga olgan qolda ayrim qonunbuzarlik holatlarini jinoiy yurisdiksiyadan mamuriy yurisdiksiyaga o`tkazishni belgilash zarur. Bunda Jinoyat kodeksidagi kam ahamiyatli qilmishlar va mazkur harakatlar uchun ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan ijtimoiy xavfi katta bo`lmagan jinoyat tarkiblarini ma'muriy yurisdiksiyaga o`tkazish lozim. Jumladan, Jinoyat kodeksining 148-moddasi (mehnat qilish huquqini buzish), 184-moddasi birinchi qismi (soliq yoki boshqa majburiy to`lovlarni to`lashdan qasddan bo`yin tovlash) kabilar shular jumlasidandir. Zero, huquqni qo`llash amaliyotida mehnat qilish huquqini buzganlik uchun shaxsga nisbatan avval ma'muriy jazosini qo`llagandan so`ng, qayta mazkur qilmishni sodir etish qollari uchramaydi. Bundan tashhari, Jinoyat kodeksining 148-moddasi (mehnat qilish huquqini buzish) bo`yicha deyarli jinoiy javobgarlikka tortish holatlar uchramaydi.

Bundan tashhari, Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksning 21-moddasiga binoan sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarlik kam ahamiyatli bo`lgan

taqdirda, shu ishni ko'rib chiqishga vakolati bo'lgan organ (mansabdor shaxs) huquqbuzarni ma'muriy javobgarlikdan ozod etib, uni ogohlantirish bilan kifoyalanishi mumkin. Nazarimizda, ushbu moddadagi kam ahamiyatli ma'muriy huquqbuzarlik tushunchasini Kodeksning tegishli moddalarida aniqlashtirish lozim. Shuningdek, ayrim xorijiy mamlakatlarda, xususan Rossiya davlati qonunchiligida "ogohlantirish" ma'muriy jazo tariqasida e'tirof etilgan. Nazarimizda, mazkur tajribani ham milliy qonunchilikda mustahkamlab qo'yish lozim. Zero, bugungi kunda vakolatli organ (mansabdor shaxs) tomonidan ma'muriy huquqbuzarga berilgan "ogohlantirish" chorasi hech bir protsessual hujjatda qayd etilmaydi va aynan ushbu shaxs tomonidan takroran huquqbuzarlik sodir etilganda o'z-o'zidan inobatga olinmaydi.

Shuningdek, Kodeksning 286-288-moddalarida ma'muriy yo'l bilan ushlab turish asoslari ko'rsatilgan bo'lib, 286-moddaga binoan ushlab turilgan shaxsning iltimosiga ko'ra, u ushlab turilgan joy haqida uning harindosh-urug'lari, advokat, ish yoki o'qish joyidagi ma'muriyat xabardor qilib qo'yiladi. Voyaga etmagan shaxs ushlab turilgani haqida uning ota-onasi yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslar albatta xabardor qilinishligi belgilangan. Bu o'rinda, fikrimizcha, mazkur normada shaxsning ushlab turilgani haqida aynan qancha muddat ichida uning yaqinlari xabardor qilinishini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Kodeksning 288-moddasiga binoan chegara tartibini yoki O'zbekiston Respublikasi davlat chegarasi orqali o'tish punktlaridagi tartibni buzgan shaxslar bayonnoma tuzish uchun uch soatgacha muddatga ushlab turilishi mumkin, huquqbuzarning shaxsini va huquqbuzarlik holatlarini aniqlash uchun zarur bo'lgan qollarda esa - ushlab turish paytidan boshlab yigirma to'rt soat ichida prokurorga yozma tarzda ma'lum qilib, uch sutkagacha yoki huquqbuzarda o'zining shaxsini tasdiqlovchi hujjat bo'lmasa, prokurorning sanksiyasi bilan o'n sutkagacha muddatga ushlab turilishi mumkin. Nazarimizda, mazkur normadagi ma'muriy ushlab turishning muddatini uzaytirish to'g'risidagi masalani hal etish

vakolatini prokurordan sudga o'tkazish lozim. Bu esa o'z navbatida, insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, uning daxlsizligini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'kidlash joizki, 2000 yil 15 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "qurilish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun yuridik shaxslarning javobgarligi to'g'risida"gi qonunida va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 8 apreldagi "Qimmatbaho metallar, qimmatbaho toshlar va valyuta boyliklari saylanishi ta'minlanmaganligi va ulardan to'g'ri foydalanilmaganligi uchun yuridik va jismoniy shaxslarning javobgarligini kuchaytirish to'g'risida"gi 124-sonli qarorida yuridik shaxslarning ma'muriy javobgarligiga doir qoidalar belgilangan. Bu esa o'z navbatida ma'muriy javobgarlikning sub'ekti sifatida yuridik shaxslarning javobgarligini Kodeksda belgilashni taqozo etadi. Ayni paytda mazkur tajribani Rossiya, Belarus va bir qator Evropa mamlakatlari qonunchiligida belgilangan bo'lib, bu borada yuridik shaxslar javobgarligining kodeksda belgilanishi normativ-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan ma'muriy javobgarlikka oid qonunchilikning unifikatsiyalashuvini ta'minlaydi.

Bundan tashhari, yangi tahrirda qabul qilinadigan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda ma'muriy jazolarning muqobil turi sifatida ogohlantirish, muayyan muddatga faoliyatni to'xtatib turish, faoliyatni ma'muriy to'xtatib turish kabi jazolarini kiritish, ayniqsa yuridik shaxslarning ma'muriy javobgarligini belgilashda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, siyosiy, iqtisodiy, davlat-huquqiy munosabatlarning butun tizimini modernizatsiya qilish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, inson huquq va erkinliklarini himoya etish bo'yicha sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish sharoitida O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksini har tomonlama qayta ishlash va yangi tahrirda qabul qilish hamda Kontseptsiyada ilgari surilgan holatlarning inobatga olinishi, o'z navbatida sohaga

oid qonunchilik tizimining yanada unifikatsiyalashuviga va huquqni qo'llash amaliyotining samaradorligiga xizmat qiladi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq huquqni muhofaza qiluvchi organlar davlatning boshqa tuzilmalaridan fuqarolar va inson huquq hamda erkinliklarini himoya qilish va ularning buzilishiga qo'l qo'ymaslik vakolatlariga ega. Shu o'rinda aytish joizki, huquqni muhofaza qilish organlarining asosiy vazifalariga qonunbuzarliklarni oldini olish, prokuror nazorati, tegishli protsessual hatti-harakatlarni bajarish, huquqiy yordam ko'rsatish hamda sud qarorlarini ijro etish kiradi.

Mamlakatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan Kontsepsiyada huquqni muhofaza qiluvchi organlarning qonuniylikni ta'minlash borasidagi vazifalariga alohida urg'u berildi. Shu o'rinda ushbu organlarning vakolatlari doirasiga faqatgina nazorat funktsiyalari kirmasdan, baliki fuqarolarning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish ham taalluqli hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi"da ko'rsatilganidek, adliya organlarining huquq ijodkorligi sohasi va huquqni qo'llash amaliyotida yagona davlat siyosatini o'tkazishdagi rolini kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Adliya, prokuratura va ichki ishlar organlari vakolatlari doirasi o'zaro bog'liqligi bilan tavsiflanadigan huquqni muhofaza qilish tizimining hozirgi holati idoralararo munosabatlarda manfaatlar muvozanatiga erishish va o'zaro tiyib turishning samarali mexanizmini yaratishni taqozo etadi. Bu maqsadga erishish yo'lida, dastlab, huquqni muhofaza qilish tizimining mavjud tuzilmasini O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining prokuratura va ichki ishlar organlari faoliyatida qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish vakolatlarini kuchaytirish orqali takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o`rinda, O`zbekiston Respublikasida huquqni muhofaza qilish tizimining bu boradagi faoliyatini takomillashtirish bo`yicha xorijiy tajribani o`rganish talab etiladi. Jumladan, adliya, prokuratura, ichki ishlar va sud organlari o`rtasidagi munosabatlar tadqiq qilinganda, xorijiy davlatlarning ba'zilarida prokuratura sud tizim tarkibiga kirishi, boshqalarida – adliya vazirligiga buysunishi, yana bir guruh davlatlarda esa prokuratura sud va adliya organlaridan mustaqil ekanligi ko`zga tashlanadi. Misol uchun, AQSh va Kanadada prokuratura mustaqil davlat organi hisoblanmaydi. Prokuratura organlarining funktsiyalari Adliya vazirligi zimmasida bo`lib, Bosh prokuror ushbu vazirlik tarkibiga kiradi. Kanadada ham prokurorga tegishli vakolatlarga ega, ayblov masalalari bilan shug`ullanadigan shaxslar Federal adliya departamentining mansabdor shaxslari hisoblanadi.

Avstriya Bosh prokuraturasi Federal oliy sud huzurida joylashgan, Bosh prokuror esa Federal adliya vazirligi oldida hisobot beradi. Avstriya Federal o`lkalarining prokurorlari o`z faoliyatlari doirasida Bosh prokurordan mustaqil bo`lib, Avstriya qonun hujjatlariga muvofiq Bosh prokuror ularga to`g`ridan-to`g`ri topshiriq va ko`rsatmalar berishga haqli emas. Aynan shunga o`xshash tizim Germaniyada ham mavjud. Bosh prokuror Federal oliy sud huzuridagi mansabdor shaxs hisoblanib, uning faoliyati va Federal adliya vazirligi tomonidan kuzatib boriladi. Lekin shunga haramasdan, u o`z maqomiga ko`ra huquqni muhofaza qiluvchi mustaqil organdir. Daniyada esa Bosh prokuror Oliy sud huzuridagi mansabdor shaxs emas. Adliya vaziri uning faoliyatini nazorat qiladi va vakolatlari ko`lamini belgilaydi.

Yaponiya va Koreya Respublikasida prokurorlar davlat mansabdor shaxslarining alohida guruhini tashkil etishadi. Federal davlatlardan farqli o`laroq, bu ikki davlatda Bosh prokuror prokuratura organlarining birinchi o`rinda turuvchi mansabdor shaxsi hisoblanadi. U hukumat va parlament oldida hisobot beradi.

Bundan tashhari, prokuratura organlari sud organlariga berilgan vakolatlar va imtiyozlarga teng huquqlarga ega.

Xorijiy davlatlarning ichki ishlar vazirliklariga e'tiborni qaratadigan bo'lsak, ularning vakolatlari doirasini ikki xil guruhga tasniflash mumkin. Birinchi guruhga jamoat tartibini saqlash, fuqaro-larning ijtimoiy farovonligi, fuqarolik masalalari, pochta va telekom-munikatsiya masalalariga tegishli vakolatlarni kiritish mumkin. Yaponiya va Isroil ichki ishlar vazirliklari o'z vakolatlari xususiyatiga ko'ra ushbu guruhga tegishlidir. Ikkinchi guruhga esa politsiya funksiyalari, jinoyatchi-likka harshi kurash, fuqarolik mudofaasi, chegaralarni qo'riqlash hamda axborot xavfsizligi kabi vakolatlar kiradi. AQSh Ichki xavfsizlik departamenti, Kanada Jamoat xavfsizligi va favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik departamenti, Koreya Respublikasi Davlat boshqaruvi va xavfsizligi vazirligi, Germaniya Federal ichki ishlar vazirligi vakolatlari ushbu guruhga tegishlidir.

Xorijiy davlat adliya vazirliklari vakolatlari ko'lamini ham o'rganish Kontseptsiyada ilgari surilgan vazifalar doirasida muhim ahamiyat kasb etadi. Misol uchun, AQSh Adliya departamentiga davlat nomidan jinoyat ishini yuritish, ayblov qo'yish, tergov qilish hamda sud tergovida ayblovni e'lon qilish vakolatlari berilgan. Adliya departamentining zimmasiga boshqa davlatlarda ichki ishlar vazirligi, kontrrazvedka, jinoyat qidiruv va jinoyat ijroiya organlariga beriladigan vazifalar yuklatilgan.

Kanada Adliya departamenti ham keng vakolatlarga ega. Mazkur organ Adliya vaziriga hamda Bosh prokurorga huquqiy yordam ko'rsatadi. Bundan tashhari, Federal hukumat va boshqa davlat tuzilmalariga yuqori sifatli yuridik xizmat ko'rsatish uning majburiyatiga kiradi.

Yaponiya Adliya vazirligining vakolatlari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Jumladan, u milliy qonunlarni va hukumat tomonidan chiqarilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ijro etish, fuqarolarning huquq va erkin-liklarini ta'minlash

tizimining boshqaruvi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Koreya Respublikasi Adliya vazirligi Prezident va hukumatga yuridik xizmat ko'rsatish bilan bir qatorda, sud tizimi faoliyatini muvofiq-lashtiradi va migratsiya masalalari bilan shug'ullanadi. Unga Inson huquqlari byurosi, Koreya ahloq tuzatish xizmati va Koreya immigratsiya xizmati buysunadi.

Xorijiy davlatlar adliya vazirliklari ichida Germaniya Federal adliya vazirligi yaqqol namuna sifatida ko'zga tashlanadi. Uning funksional vakolatlariga, xususan, Bundestag (parlament quyi palatasi) va Bundesratga (parlament yuqori palatasi) qonun loyihalarini tayyorlashda ko'maklashish kiradi. Mazkur holat ayniqsa fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat huquqi, intellektual mulk, bandlik va aholini ijtimoiy himoyalash, sudlov tartib-tamoyillariga oid qonun ijodkorligi jarayonida namoyon bo'ladi. Federal adliya vaziri Federal oliy sud, Jinoyat ishlari bo'yicha beshinchi palata, Federal ma'muriy sudning sudyalarini tayinlaydi hamda notariuslar, sudlar, prokurorlar va fuqarolarga huquqiy yordam ko'rsatuvchi boshqa davlat tuzilmalari faoliyatini tashkillashtiradi va muvofiqlashtiradi.

Yuqorida keltirilgan chet el tajribasidan ko'rish mumkinki, huquqni muhofaza qilish organlari tizimida o'zaro tiyib turish mexanizmining samarali ishlashi mazkur davlat tuzilmalarining hisobdorlik tartibi, huquqiy maqomi va vakolatlari doirasi bilan belgilanadi. Ushbu masalada O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huquqiy siyosatni amalga oshirish borasida chet el adliya organlarining vakolatlariga o'xshash vazifalarni ham bajarishi ko'zga tashlanadi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to'g'risidagi Nizomning (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2003 yil 27 avgustdagi 370-sonli qarorining 1-Ilovasi) 6-bandi birinchi qismiga binoan ushbu vazirlik qonun ijodkorligi va huquqni qo'llash sohalarini alohida tarzda nazorat qiladi. qonun loyihalarini ishlab chiqish masalasida mazkur vazirlik muvofiqlashtiruvchi rolni bajaradi va davlat boshqaruvi idoralari faoliyati ustidan metodik rahbarlik qiladi.

huquqni qo'llash sohasida Adliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarini bir xil qo'llash ishini tashkillashtiradi va ushbu jarayon ustidan monitoring olib boradi. U o'zining vakolati doirasida qonun hujjatlarini qo'llash yuzasidan xulosalar beradi.

Mamlakatimiz rahbari ilgari surgan Kontseptsiyada belgilangan ushbu masala mog'iyatidan kelib chiqib, Adliya vazirligining yuqorida aytib o'tilgan vakolatlarini kengaytirish huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida o'zaro tiyib turish mexanizmining samarasini oshirishga olib kelishi darkor. Binobarin, ushbu mexanizm samaradorligining asosiy ko'rsatkichlari adliya, prokuratura va ichki ishlar organlari vakolatlarining o'zaro takrorlanmasligi hamda idoralararo darajada manfaatlar nomunatosibligiga qo'l qo'yilmasligi bilan tavsiflanadigan huquqiy tizimning barqarorligi va bir butunligidan iborat bo'lishi bilan belgilanishi zarur.

Kontseptsiyada belgilangan ushbu vazifa doirasida adliya organlarining huquq ijodkorligi sohasi va huquqni qo'llash amaliyotida yagona davlat siyosatini o'tkazishdagi rolini kuchaytirish uchun ularga zarur bo'lgan tegishli vakolatlarning berilishi mamlakatimizning huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari tizimida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali mexanizmini yaratish imkonini beradi hamda ushbu organlar faoliyatida qonuniylik va qonun ustuvorligini taminlashga xizmat qiladi.

2010 yil 12 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohot-larni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" maruzasida ta'kidlaganidek, "Jamiyatning demokratiya yo'lidan jadal rivojlanishi va bu borada amalga oshirilayotgan islohot-larning muvaffaqiyati ko'p jihatdan odamlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyat darajasiga bog'liqdir. Yuksak huquqiy madaniyat – demokratik jamiyat poydevori va huquqiy tizimning etuklik

ko'rsatkichidir. Shu munosabat bilan, bugungi siyosiy-huquqiy voqelikni hisobga olgan qolda, mamlakatimizda huquqiy talim va marifatni, jamiyatda huquqiy bilimlar tarqibotini tubdan yaxshilashga yo'naltirilgan maqsadli keng ko'lamli chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish zarur. Ushbu dasturning amalga oshirilishi aholining inson huquq va erkinliklariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishini, fuqarolarda qonunga itoatkorlik tuyg'usining yanada ortishini taminlaydi".

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi" huquqiy hayotimizni tubdan yaxshilashga xizmat qiladigan davlat va jamiyat ahamiyatiga molik huquqiy hujjat sifatida xizmat qilib kelmoqda. Bunday hujjatning xorijiy davlatlar qonunchilik amaliyotida kuzatilmasligi huquqiy davlat qurish yo'lidagi barchaning havasini keltiradigan normativ-huquqiy hujjat ekanligidan dalolat beradi. Yuksak huquqiy madaniyat barcha sohadagi islohotlar, reja va dasturlarni ro'yobga chiqarishga xizmat qiladigan, eng muhimi, Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlashda huquqiy tizimning etuklik ko'rsatkichi vazifasini bajaradigan umuminsoniy va milliy qadriyatdir. Mustaqillik yillarida qonun hujjatlarining son va sifat jihatdan tobora rivojlanib borayotganligi fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligini tasdiqlaydi.

Statistik tahlillar ko'rsatishicha, 2011 yilning 1 mart holatiga ko'ra, 1991-2010 yillar mobaynida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari 599 ta, O'zbekiston Respublikasi kodekslari 15 ta, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish to'g'risidagi qonunlar 253 ta, kuchini yo'qotgan qonunlar soni 109 ta, jami 708 tadan iborat. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari 4289 ta, qarorlari 1490 ta, farmoyishlari 3607 tani tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari qayd etilgan davr mobaynida jami bo'lib 9327 tani tashkil etadi. Bu rahamlar dalolat berishicha, mustaqillik yillarida normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, qabul qilish va uning amalda bo'lishini ta'minlash barasida yangi tarixiy sahifa ochilganidan dalolatdir. Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar 2194 tadan iborat bo'lib, shulardan 935 tasi o'z kuchini yo'qotgan. Birgina ikki palatali tizimga o'tganimizdan keyingi davrda qabul qilingan 346 ta qonunni nazarda tutganimizda ham bu boradagi milliy huquqiy tizimni shakllantirishga ustuvor darajada e'tibor berilayotganligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrda bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" nomli ma'ruzasida demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish borasida belgilangan eng muhim ustuvor vazifalarni bajarish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 14 yanvardagi 6 ta Farmoyishi bilan Kontsepsiyada belgilangan Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, sud-huquq tizimini isloh etish, axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini taminlash, O'zbekistonda saylov huquqi erkinligini taminlash va saylov qonunchiligini rivojlan-tirish, fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish, demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish yo'nalishlari bo'yicha jami bo'lib 47 ta normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash vazifalari belgilangan. Bu ham o'z navbatida, qabul qilinishi nazarda tutilgan qonun hujjatlarining mazmun-mog'iyatini aholiga etkazish bo'yicha keng hamrovli huquqiy madaniyatni yuksaltirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni talab etadi.

Darhaqiqat, Yurtboshimiz tashabbuslari bilan mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yo'lidan

borayotgan O'zbekiston Respublikasida ayni paytda inson huquq va erkinliklarini eng oliy qadriyat sifatida asos qilib olgan milliy qonunchilik bazasi shakllantirildi. Mamlakatimiz tarixida birinchi marotaba ikki palatali parlament o'z faoliyatini amalga oshirmoqda. Ikki palatali parlament o'z faoliyati davrida mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida ulkan o'zgarishlar amalga oshirildi. Parlament nazorati instituti rolining yanada kuchayishi joylarda qonunlar ijrosini ta'minlagan bo'lsa, siyosiy partiyalar fraktsiyasining joriy etilishi joylardagi hokimiyat vakillik organlarida ular ta'sirining yanada oshishiga olib keldi. Ushbu davr mobaynida parlamentimiz tomonidan qabul qilinayotgan qonunlarning sifat va asoslanishlari yanada yaxshilandi. Ayni paytda shuni ham ta'kidlash kerakki, mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan ishlar xususan, sud-huquq tizimining liberallashtirilishi, o'lim jazosining bekor qilinishi, qamoqqa olish to'g'risidagi sanksiya ning sudlarga berilishi, advokatura institutining yanada isloh etilishi, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining qabul qilinishi va boshqalarni amalga oshirishda mamlakatimiz ikki palatali parlamentning roli benihoya kattadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 14 yanvardagi "Mamlakatda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish Konsepsiyasini sud-huquq tizimini isloh etish sohasida amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risidagi Farmoyishining 6 bandiga ko'ra bugungi siyosiy-huquqiy voqelikni hisobga olib mamlakatimizda huquqiy ta'lim va ma'rifatni, jamiyatda huquqiy tarqibotni tubdan yaxshilashga yo'naltirilgan Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi" loyihasini tayyorlash vazifasi belgilangan. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturining yangi tahririni tayyorlash va ko'rib chiqishning ahamiyati va zaruriyatini bir qator omillarga ko'ra tavsiflash mumkin. Eng avvalo deputatlar korpusi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ta'lim muassasalari, maslahat berish va ma'rifiy

faoliyatni amalga oshirayotgan fuqarolik institutlarining fuqarolarning huquqiy madaniyatini, yuksak huquqiy ongini oshirish bo'yicha ishlarni tashkil etishdagi faoliyatining samarali muvofiqlashtirishni ta'minlash zarur. Bunday keng ko'lamdagi huquqiy madaniyatni yuksaltirish faoliyatini amalga oshirishda huquqiy tarbiya va targ'ibotning zamonaviy ta'sirchan shakl va usullaridan, axborot kommunikatsiya texnologiyalari va ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlaridan samarali foydalanishni taqozo etadi. Eng muhimi, aholining, huquqiy soha xodimlarining, maslahat berish va ma'rifiy ishlarni amalga oshiruvchi jamoat birlashmalari xodimlarining huquqiy madaniyatini oshirish ustuvor vazifa sifatida haralmoq'i shart. qolaversa fuqarolarga huquqiy ta'lim berish va ularni tarbiyalash ularda qonunlarga, inson huquqlari va erkinliklariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni, qonunga itoatkor xulq-atvorni shakllantirish sohasidagi ishlarni samarali tashkil etishga nafaqat so'zda, balki amalda erishishni ta'minlash masalasiga alohida ahamiyat berilishi lozim. Shuningdek huquqiy bilimlar markazlari tarmoqlarini, ayniqsa qishloq joylarda yanada rivojlantirishni, masofadan turib huquqiy maslahatlar ko'rsatish hamda ommaviy axborot vositalarida aholining huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan doimiy ruknlarni ko'paytirish, ushbu sohaga oid yangi o'quv dasturlari, darsliklar va uslubiy qo'llanmalarni ishlab chiqish yo'li bilan fuqarolarning huquqiy axborotdan erkin foydalanishini kengaytirish bilan bog'liq bir qator vazifalarni hal etish qayd etilgan milliy dasturni yangi tahrirda ishlab chiqish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Fuqarolarning bilim saviyasi va ijro etish mas'uliyatining oshishi, tegishli tashkilotlar mansabdor shaxslari huquqiy madaniyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturining ishlab chiqilishi mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasidagi islohotlarni amalga oshirishda normativ huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur loyihani tayyorlash maqsadida bir qator tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni shuningdek, amaldagi “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi”ni hayotga qoʻllash tajribasini inobatga olib, asoslantirilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish talab etilmoqda. Birinchidan, “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi”ning monitoringini oʻtkazib, mavjud muammolar, ularni hal qilish choralari ishlab chiqilishi zarur. Ikkinchidan, huquqiy targʻibotni idoralararo muvofiqlashtirishning samarali tizimini yoʻlga qoʻyish maqsadga muvofiq. Uchinchidan, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishning media rejalarini har yili ishlab chiqib, uni ijrosini toʻliq taʼminlash choralari koʻrish zarur. Ushbu rejada qonunchilik, ijro va sud hokimiyati-ning bu boradagi faoliyat yoʻnalishlari aniq qolda koʻrsatilishi lozim. Toʻrtinchidan, mamlakatimizda davlat korxonalari, nodavlat tashkilotlari, taʼlim muassasalari, barcha xoʻjalik yurituvchi subʼektlarda oylik “huquqiy bilimlar kuni”ni joriy etish, huquqiy targʻibotga oid maxsus telekoʻrsatuv va radioeshittirishlarni, ularning efir vaqtlarini qatʼiy belgilab, uni amalga oshirish choralari koʻrish. Beshinchidan, aholining va huquqni qoʻllovchi subʼektlarning huquqiy xabardorlik darajasini oshirish maqsadida qonun hujjatlarining rasmiy manbalardan (shu jumladan elektron dastur shaklida) foydalanish imkoniyatini yanada kengaytirish lozim. Oltinchidan, huquqiy mavzularda yozadigan jurnalistlarni tayyorlash, ularni ixtisoslashtirish, normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish huquqiga ega boʻlgan subʼektlar matbuot xizmatlarining bu boradagi vakolatlarini belgilash va uni takomillashtirish choralari koʻrish talab etilmoqda. Ettinchidan, Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat markazi va “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining huquqiy targʻibotda faolligini oshirish choralari koʻrish kerak. Sakkizinchidan, huquqiy taʼlim va maʼrifatga hamda huquqiy bilimlar targʻiboti uchun masʼul boʻlgan mansabdor va masʼul shaxslarning tasdiqlangan reja va dasturlar ijrosini taʼminlash borasidagi masʼuliyatini oshirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda huquqiy ta'lim va bilimni, ma'rifatni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirishni fuqarolarning qonunga itoatkorlik tuyg`usini yanada ortishiga xizmat qiladi. o`z navbatida ushbu dasturning amalga oshirilishi aholining inson huquq va erkinliklariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo`lishini, fuqarolarda qonunga itoatkorlik tuyg`usining yanada ortishini taminlash bilan birga fuqarolarimizning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishga, jamiyatimizning demokratiya yo`lidan jadal rivojlanishi va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyatini to`liq ta'minlanishiga xizmat qiladi.

XULOSA

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va rivojlantirishda aholining, ayniqsa yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda mamlakatimiz ikki palatali parlamenti tomonidan qabul qilingan qonunlar bilan birga ularning mazmun-mog'iyatini aholi va tegishli ijrochilarga etkazish, ular yuzasidan targ'ibot-tashqiqot ishlarini olib borish davr talabi bo'lib hisoblanadi. Aholi huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning huquqiy asoslarini keng jamoatchilikka etkazish masalasi bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

2010 yil 12 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" maruzasida ta'kidlaganidek, "Jamiyatning demokratiya yo'lidan jadal rivojlanishi va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan odamlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyat darajasiga bog'liqdir. Yuksak huquqiy madaniyat – demokratik jamiyat poydevori va huquqiy tizimning etuklik ko'rsatkichidir .

Shu munosabat bilan, bugungi siyosiy-huquqiy voqelikni hisobga olgan qolda, mamlakatimizda huquqiy talim va marifatni, jamiyatda huquqiy bilimlar targ'ibotini tubdan yaxshilashga yo'naltirilgan maqsadli keng ko'lamli chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish zarur. Ushbu dasturning amalga oshirilishi aholining inson huquq va erkinliklariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishini, fuqarolarda qonunga itoatkorlik tuyg'usining yanada ortishini taminlaydi".

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi" huquqiy hayotimizni

tubdan yaxshilashga xizmat qiladigan davlat va jamiyat ahamiyatiga molik huquqiy hujjat sifatida xizmat qilib kelmoqda. Bunday hujjatning xorijiy davlatlar qonunchilik amaliyotida kuzatilmasligi huquqiy davlat qurish yo`lidagi barchaning havasini keltiradigan normativ-huquqiy hujjat ekanligidan dalolat beradi. Yuksak huquqiy madaniyat barcha sohadagi islohotlar, reja va dasturlarni ro`yobga chiqarishga xizmat qiladigan, eng muhimi, Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlashda huquqiy tizimning etuklik ko`rsatkichi vazifasini bajaradigan umuminsoniy va milliy qadriyatdir. Mustaqillik yillarida qonun hujjatlarining son va sifat jihatdan tobora rivojlanib borayotganligi fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko`tarilganligini tasdiqlaydi.

Statistik tahlillar ko`rsatishicha, 2011 yilning 4 yanvar holatiga ko`ra, 1991-2010 yillar mobaynida O`zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari 599 ta, O`zbekiston Respublikasi kodekslari 15 ta, O`zbekiston Respublikasi qonunlariga qo`shimcha va o`zgartishlar kiritish to`g`risidagi qonunlar 253 ta, kuchini yo`qotgan qonunlar soni 109 ta, jami 708 tadan iborat. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari 4261 ta, qarorlari 1455 ta, farmoyishlari 3549 tani tashkil etadi.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari qayd etilgan davr mobaynida jami bo`lib 9277 tani tashkil etadi. Bu rahamlar dalolat berishicha, mustaqillik yillarida normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, qabul qilish va uning amalda bo`lishini ta'minlash barasida yangi tarixiy sahifa ochilganidan dalolatdir. Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar 1250 tadan iboratdir. Birgina ikki palatali tizimga o`tganimizdan keyingi davrda qabul qilingan 346 ta qonunni nazarda tutganimizda ham bu boradagi milliy huquqiy tizimni shakllantirishga ustuvor darajada e'tibor berilayotganligini ko`rsatadi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrda

bo`lib o`tgan qo`shma majlisidagi “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” nomli ma’ruzasida demokratik o`zgarishlarni yanada chuqurlashtirish borasida belgilangan eng muhim ustuvor vazifalarni bajarish maqsadida, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 14 yanvardagi 6 ta Farmoyishi bilan Kontsepsiyada belgilangan Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, sud-huquq tizimini isloh etish, axborot sohasini isloh qilish, axborot va so`z erkinligini taminlash, O`zbekistonda saylov huquqi erkinligini taminlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish, fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish, demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish yo`nalishlari bo`yicha jami bo`lib 47 ta normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash vazifalari belgilangan. Bu ham o`z navbatida, qabul qilinishi nazarda tutilgan qonun hujjatlarining mazmun-mog`iyatini aholiga etkazish bo`yicha keng hamrovli huquqiy madaniyatni yuksaltirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni talab etadi.

Darhaqiqat, Yurtboshimiz tashabbuslari bilan mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yo`lidan borayotgan O`zbekiston Respublikasida ayni paytda inson huquq va erkinliklarini eng oliy qadriyat sifatida asos qilib olgan milliy qonunchilik bazasi shakllantirildi. Mamlakatimiz tarixida birinchi marotaba ikki palatali parlament o`z faoliyatini amalga oshirmoqda. Ikki palatali parlament o`z faoliyati davrida mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida ulkan o`zgarishlar amalga oshirildi. Parlament nazorati instituti rolining yanada kuchayishi joylarda qonunlar ijrosini ta'minlagan bo`lsa, siyosiy partiyalar fraktsiyasining joriy etilishi joylardagi hokimiyat vakillik organlarida ular ta'sirining yanada oshishiga olib keldi. Ushbu davr mobaynida parlamentimiz tomonidan qabul qilinayotgan qonunlarning sifat va asoslanishlari yanada yaxshilandi. Ayni paytda shuni ham ta'kidlash kerakki, mamlakatimizda so`nggi yillarda amalga oshirilayotgan ishlar

xususan, sud-huquq tizimining liberallashtirilishi, o`lim jazosining bekor qilinishi, qamoqqa olish to`g`risidagi sanksiyaning sudlarga berilishi, advokatura institutining yanada isloh etilishi, yangi tahrirdagi O`zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining qabul qilinishi va boshqalarni amalga oshirishda mamlakatimiz ikki palatali parlamentning roli benihoya kattadir.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 14 yanvardagi “Mamlakatda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish Konsepsiyasini sud-huquq tizimini isloh etish sohasida amalga oshirish bo`yicha chora-tadbirlar to`g`risidagi Farmoyishining 6 bandiga ko`ra bugungi siyosiy-huquqiy voqelikni hisobga olib mamlakatimizda huquqiy ta`lim va ma`rifatni, jamiyatda huquqiy targ`ibotni tubdan yaxshilashga yo`naltirilgan Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi” loyihasini tayyorlash vazifasi belgilangan. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturining yangi tahririni tayyorlash va ko`rib chiqishning ahamiyati va zaruriyatini bir qator omillarga ko`ra tavsiflash mumkin. Eng avvalo deputatlar korpusi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ta`lim muassasalari, maslahat berish va ma`rifiy faoliyatni amalga oshirayotgan fuqarolik institutlarining fuqarolarning huquqiy madaniyatini, yuksak huquqiy ongini oshirish bo`yicha ishlarni tashkil etishdagi faoliyatining samarali muvofiqlashtirishni ta`minlash zarur. Bunday keng ko`lamdagi huquqiy madaniyatni yuksaltirish faoliyatini amalga oshirishda huquqiy tarbiya va targ`ibotning zamonaviy ta`sirchan shakl va usullaridan, axborot kommunikatsiya texnologiyalari va ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlaridan samarali foydalanishni taqozo etadi. Eng muhimi, aholining, huquqiy soha xodimlarining, maslahat berish va ma`rifiy ishlarni amalga oshiruvchi jamoat birlashmalari xodimlarining huquqiy madaniyatini oshirish ustuvor vazifa sifatida haralmog`i shart. qolaversa fuqarolarga huquqiy ta`lim berish va ularni tarbiyalash ularda qonunlarga, inson huquqlari va erkinliklariga

hurmat bilan munosabatda bo'lishni, qonunga itoatkor xulq-atvorni shakllantirish sohasidagi ishlarni samarali tashkil etishga nafaqat so'zda, balki amalda erishishni ta'minlash masalasiga alohida ahamiyat berilishi lozim. Shuningdek huquqiy bilimlar markazlari tarmoqlarini, ayniqsa qishloq joylarda yanada rivojlantirishni, masofadan turib huquqiy maslahatlar ko'rsatish hamda ommaviy axborot vositalarida aholining huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan doimiy ruknlarni ko'paytirish, ushbu sohaga oid yangi o'quv dasturlari, darsliklar va uslubiy qo'llanmalarni ishlab chiqish yo'li bilan fuqarolarning huquqiy axborotdan erkin foydalanishini kengaytirish bilan bog'liq bir qator vazifalarni hal etish qayd etilgan milliy dasturni yangi tahrirda ishlab chiqish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Fuqarolarning bilim saviyasi va ijro etish mas'uliyatining oshishi, tegishli tashkilotlar mansabdor shaxslari huquqiy madaniyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturining ishlab chiqilishi mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasidagi islohotlarni amalga oshirishda normativ huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur loyihani tayyorlash maqsadida bir qator tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni shuningdek, amaldagi "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi"ni hayotga qo'llash tajribasini inobatga olib, asoslantirilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish talab etilmoqda. Birinchidan, "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi"ning monitoringini o'tkazib, mavjud muammolar, ularni hal qilish choralari ishlab chiqilishi zarur. Ikkinchidan, huquqiy targ'ibotni idoralararo muvofiqlashtirishning samarali tizimini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. Uchinchidan, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishning media rejalarini har yili ishlab chiqib, uni ijrosini to'liq ta'minlash choralari ko'rish zarur. Ushbu rejada qonunchilik, ijro va sud hokimiyatining bu boradagi faoliyat yo'nalishlari aniq qolda ko'rsatilishi lozim. To'rtinchidan, mamlakatimizda davlat korxonalari, nodavlat tashkilotlari, ta'lim muassasalari,

barcha xo`jalik yurituvchi sub'ektlarda oylik "huquqiy bilimlar kuni"ni joriy etish, huquqiy targ`ibotga oid maxsus teleko`rsatuv va radioeshittirishlarni, ularning efir vaqtlarini qat'iy belgilab, uni amalga oshirish choralarini ko`rish. Beshinchidan, aholining va huquqni qo`llovchi sub'ektlarning huquqiy xabardorlik darajasini oshirish maqsadida qonun hujjatlarining rasmiy manbalardan (shu jumladan elektron dastur shaklida) foydalanish imkoniyatini yanada kengaytirish lozim. Oltinchidan, huquqiy mavzularda yozadigan jurnalistlarni tayyorlash, ularni ixtisoslashtirish, normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish huquqiga ega bo`lgan sub'ektlar matbuot xizmatlarining bu boradagi vakolatlarini belgilash va uni takomillashtirish choralarini ko`rish talab etilmoqda. Ettinchidan, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi va "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining huquqiy targ`ibotda faolligini oshirish choralarini ko`rish kerak. Sakkizinchidan, huquqiy ta'lim va ma'rifatga hamda huquqiy bilimlar targ`iboti uchun mas'ul bo`lgan mansabdor va mas'ul shaxslarning tasdiqlangan reja va dasturlar ijrosini ta'minlash borasidagi mas'uliyatini oshirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda huquqiy ta'lim va bilimni, ma'rifatni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirishni fuqarolarning qonunga itoatkorlik tuyg`usini yanada ortishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

Rahbariy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O`zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. -T.1. - Toshkent: O`zbekiston. 1996, -364 b.
2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. –Toshkent: O`zbekiston.- 1996, -380 b.
3. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. –Toshkent: O`zbekiston. 1996, -366 b.
4. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo`lidan. T.4. –Toshkent: O`zbekiston. 1996, -394 b.
5. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash-davr talabi. T.5. –Toshkent: O`zbekiston. 1997, -384 b.
6. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo`lida. T.6. –Toshkent: O`zbekiston. 1998, -429 b.
7. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz. T.7. –Toshkent: O`zbekiston. 1999, -413 b.
8. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot — pirovard maqsadimiz. T.8. –Toshkent: O`zbekiston. 2000, -525 b.
9. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T.9. –Toshkent.: O`zbekiston. 2001, -439 b.
10. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10. –Toshkent.: O`zbekiston. 2002, 432 b.

11. Karimov I.A. Biz tanlagan yo`l - demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo`li. T.11. –Toshkent: O`zbekiston. 2003, -320 b.
12. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o`z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog`liq. T.12. –Toshkent: O`zbekiston. 2004, -400 b.
13. Karimov I.A. o`zbek xalqi hech qachon, hech kimga haram bo`lmaydi. T.13. –Toshkent: O`zbekiston. 2005, -448 b.
14. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari–eng oliy qadriyat. T.14. –Toshkent: O`zbekiston. 2006, -280 b.
15. Karimov. I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohot-larni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T.15. –Toshkent: O`zbekiston, 2007. - 318 b.
16. Karimov. I.A. O`zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo`li. –Toshkent: O`zbekiston. 2007. -48 b.
17. Karimov. I.A. Asosiy maqsadimiz – yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo`lini qat'iyat bilan davom ettirishdir. –Toshkent: O`zbekiston. 2007. - 48 b.
18. Islom Karimov. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo`lida. T.16. –Toshkent: O`zbekiston, 2007. -366 b.
19. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008. -102 b.
20. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlani-shini ta'minlash - bizning oliy maqsadimiz. T. 17. –Toshkent: O`zbekiston, 2009. - 280 b.

21. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish - ustuvor maqsadimizdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentiz I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi (27.01.2010 y.) ma'ruzasi G'G' "Xalq so'zi" gaz. 2010 yil 28 yanvar soni.

22. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrda bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" nomli ma'ruzasi G'G' "Xalq so'zi" gazetasi, 2010 yil 13 noyabr, 220 (5135)-soni.

Qonun hujjatlari:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2010. – 40 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Rasmiy nashr. –Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2010. -496 b.
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. O'zbekiston Respublikasining Adliya vazirligi. –Toshkent: Adolat, 2010 y. -356b.
4. O'zbekiston Respublikasining Xo'jalik protsessual kodeksi. –Toshkent: O'zbekiston Respublikasining Adliya vazirligi. Rasmiy nashr. 2010.
5. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. –Toshkent. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi rasmiy nashri. 2010 y.
6. O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 14 dekabrda "Sudlar to'g'risida"gi (Yangi tahriri) 162-II-son qonuni G'G' O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi. 2001 y. 1-2-son, 10-modda.

7. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharq. 1-jild (birinchi qism). Adliya vazirligi. –Toshkent: “Vektor-Press”, 2010. -345 b.
8. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. O'zbekiston Respublikasining 24.04.1997 y. 396-I-son qonuni bilan tasdiqlangan. G`G` O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 1997 y. 4-5-son.
9. “Prokuratura to`g`risida”gi O'zbekiston Respublikasining 29.08.2001 y. 257-II-son qonuni. (Yangi tahriri) G`G` O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2001 y. 9-10-son, 168-modda.
10. “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to`g`risida”gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. G`G` O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2001 y. 9-10-son, 169-modda.

MUNDARIJA

Kirish.....	2
5. Qonun ijodkorligi jarayonining samaradorligini yanada oshirish – davr talabi.....	6
6. Sud hokimiyatining nufuzini oshirish masalalari.....	15
7. Tezkor-qidiruv faoliyatining huquqiy asosini yaratish.....	29
8. Sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishning ahamiyati va zarurati.....	34
Xulosa.....	50
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	56